**Kayumov Ibragim Fayzullayevich**

# OILADOSH CHOLG‘ULARNI O‘RGANISH

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**BUXORO - 2020**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA**
**MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Kayumov Ibragim Fayzullayevich**

# OILADOSH CHOLG‘ULARNI O‘RGANISH

*Respublika oliy o‘quv yurtlari bakalavriatining 5111000 – kasbiy ta’limi 5150700 – cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi talabalari uchun*

O‘quv qo‘llanma

**BUXORO - 2020**

Ушбу ўқув қўлланма мусиқа санъати соҳасидаги олий таълим муассасалари талабалари учун мўлжалланган бўлиб, оиладош чолғуларни ўрганиш ҳамда чолғу ижрочиси сифатида мустақил фаолият кўрсатадиган мутахассис тайёрлашга мўлжалланган бўлиб, ДТСга асосланган.

**Mas'ul muharrir:**
**A.Qalandarov**, Buxoro davlat universiteti "Durdona nashriyoti" bo'lim mudiri
**Taqrizchilar:**
**Avaz Mansurov,** Toshkent Davlat konservatoriyasi kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasi professori, kompozitor
**Baxrom Madrimov,** BuxDU san'atshunoslik fakulteti dekani, musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, professor v/b.
**Sanoqul Do'stov,** BuxDU, musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Это учебное пособие предназначено для студентов музыкальных учебных заведений для изучения и исполнения на родственных инструментах и подготовки специалистов самостоятельного исполнения на музыкальных инструментах, основан на ДТС.

**Ответственный редактор**
**А. Каландаров**, заведующий отдела "Дурдона нашриёти", Бухарского государственного университета
**Рецензенты:**
**Аваз Мансуров**, Профессор кафедры композиции и музыки, композитор Ташкентской государственной консерватории
**Бахром Мадримов**, декан факультета искусств Бухарского государственного университета, доктор философских наук, профессор
**Санокул Дустов**, Бухарский государственний университет, факультет искусствознания, доцент кафедры музыкального образования, кандидат педагогических наук

This study guide is intended for students of musical educational institutions for the study and performance of related instruments and the training of independent performance specialists in musical instruments, based on TPA.

**Responsible Editor**
**A.Kalandarov**, Bukhara State University, Head of department of "Durdona Publishing"
**Reviewers:**
**Avaz Mansurov**, Professor and composer of Tashkent State conservatory
**Bakhrom Madrimov**, Dean and candidate of pedagogical subjects of Bukhara State University Deparment of art
**Sanoqul Do'stov**, Candidate of pedagogical subjects, professor of Bukhara State University

## Annotatsiya

Oiladosh cholg‘ularni o‘rganish nomli o‘quv qo‘llanma musiqa san’ati sohasidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, DTS dasturiga amal qilingan holda oiladosh cholg‘ularni o‘rganish va ijro etish mahoratiga ega bo‘lgan mutaxasislarni tayyorlash uchun muhim o‘rin tutadi.

## Аннотация

Учебное пособие “Изучение родственных музыкальных инструментов” предназначено для студентов высших учебных заведений в области музыкального искусства и играет важную роль в подготовке специалистов, обучающихся и играющих на инструментах, следуя программе ДТС.

## Annotation

The study guide “Learning Related Musical Instruments” is intended for students of higher educational institutions in the field of musical art and plays an important role in the training of specialists studying and playing the instruments following the TPA program.

# KIRISH

Musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotida, xususan cholg‘u ijrochiligida milliy musiqa cholg‘ularining ham o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, cholg‘u ijrochiligi musiqa asarlarini paydo bo‘lishida, musiqa madaniyatining rivojlanishida, asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha yetib kelishida asosiy omil hisoblanadi.

Musiqa cholg‘ulari, cholg‘u ijrochiligi har bir davrda musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, xalq cholg‘ulari har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi. Musiqa cholg‘ulari ijrosida esa har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo‘lib turadi. Chunki milliy musiqa cholg‘ularida asosan ko‘proq har bir xalqning milliy musiqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg‘ulari deb ataladi. Har bir millatning musiqa merosi, milliy musiqa cholg‘ularining ijrolaridagi sadolanish bilan bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Masalan: arab, fors, turk, hind, o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman musiqasi va hokazo. Hosil qilingan musiqa sadolaridan biri “nag‘ma” deb atalib, “nag‘ma” ikki xil nomlangan. “Qavliy” bu tabiiy inson tovushidagi sadolar va “fe’liy” esa sun’iy deb sanalib, ya’ni musiqa cholg’ularidan chiqadigan musiqiy sadolar tushuniladi.[1]

Xalq musiqa merosidagi avvalambor milliy cholg‘ularda tarannum etilayotgan kuy – qo‘shiqlar, allalar, o‘lanlar, laparlar, dostonchilik qo‘shiqlari va kasbiy ijrochilikning professional mazmunidagi badiiylashgan madaniy, ma’rifiy va estetik ideallardan yosh avlod tarbiyasida milliy o‘zligiga xos tavsiflar kabi foydalanish va sadolanishlarning yanada chiroyiga erishish, ularni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida kamol topishida, qolaversa, ta’lim va tarbiyani milliy asoslarda barpo etishda poydevor vazifalarini o‘taydi. O’zbek halq cholg’u asboblarida ijro etish san’ati o’z taraqqiyotining ko’p asrlik an’analarini meros qilib oldi. Ularning

[1] Is’hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent-1963. 12.s.

ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933 - yildagi Ayratom shaxristoni arxeologik qazilmalarida topilgan madaniy boyliklar, qadimiy adabiy manbalar, o'zidan ilgari turli musiqa asboblari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramiz boshlarida turli tuman halq cholg'u asboblaridan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, halq sayillarida ijrochilikda keng foydalanilgan. Xalq musiqa cholg'u asboblari asrlar davomida inosnlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Tasviriy san'at asarlari, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII - asrdayoq ikki turdagi halq cholg'u ansambli mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda halq musiqa ijodining og'zaki an'analari keng tarqalgan bo'lib, ular cholg'u musiqasinnig har xil janrlari, turkumlari, rang-barang musiqa san'ati turlari, ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. O'rta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqi o'laroq uch xil mustaqil uslub kasb etadi.

1) Farg'ona – Toshkent yo'nalishidagi (chor maqom)
2) Xorazm ijrochilik yo'nalishi (olti yarim maqom, panjgox ham kirgan)
3) Samarqand – Buxoro ijrochilik uslubi, ya'ni shashmaqomdir.
4) Qashqadaryo – Surxandaryo dostonchilik san'atlari

XIX - asr oxiri XX - asr boshlarida halq cholg'ularida ijrochilik san'ati rivojlanishi, yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit, Ovropa madaniyati ta'siri bilan bog'lanadi. XX - asrnnig 50-yillaridan yangi sozlarning orkestr tarkibiga kirib kelishi va ularning orkestrdagi imkoniyatlari oshdi.

Shunday qilib, o'zbek halq cholg'u asboblarining paydo bo'lishi va takomillashining boy tarixi bilan bog'liq bilimlar, musiqa ijrochilik texnikasi, imkoniyati va taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi.

O'quv qo'llanma Respublikaning oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari talaba va o'quvchilariga "Oiladosh cholg'ularni o'rganish" va ijro mahoratini rivojlantirish, yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish va musiqa san'atini sevishga hamda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va aholqiy sifatlarini o'stirishga katta xizmat qiladi.

# I-QISM

# O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI TARIXIDAN

O‘zbek xalq cholg‘ularining tarixi qadimdan o‘rganilib kelinadi. IX-XVII asrlarda yashab o‘tgan O‘rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg‘ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomini, mashhur musiqiy asarlar nomini uchratish mumkin.

O‘zbek an’anaviy musiqasini yig‘ish va o‘rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab keng miqyosda olib borila boshladi. Bu ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishlash bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug‘ullanishgan. Birinchi navbatda, bular A.Eyxgorn va F.Leysiklardir. Xususan, A.Eyxgorn turli guruhlarga kiruvchi 36 ta xalq cholg‘usidan iborat katalogni tuzgan. Xalq cholg‘ularini yig‘ish va o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919 - yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo‘lim ochiladi va u bu bo‘limga rahbarlik qiladi. Bu bo‘lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg‘ulari kolleksiyasini yig‘ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o‘rganish bo‘ldi.

O‘zbek musiqasini o‘rganish tarixida keng ko‘lamdagi olim, iste’dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir. V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o‘tkazilgan ekspeditsiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqa madaniyatini o‘rganishi uchun katta turtki bo‘ldi. Musiqa nazariyasini o‘rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tadi. Uning o‘zbek xalq cholg‘ulari rivoji tarixi bo‘limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o‘lchash ishlari katta qiziqish uyg‘otadi.

1933 - yili Moskvada V.M.Belyayevning “O‘zbekiston musiqiy cholg‘ulari” nomli kitobi nashr qilinadi. Unda 50 dan ortiq cholg‘uning tavsifi berilgan. Kitobda birinchi marta o‘zbek xalq cholg‘ulari ilmiy darajada tasniflangan.

An’anaviy musiqa cholg‘ularini o‘rganish va ularda ijro etishni o‘rgatish masalalari bo‘yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg‘ularni qayta ta’mirlash va

modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrosyans olib bordi. A.I.Petrosyans “Cholg‘ushunoslik” kitobida xalq cholg‘ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi. Shu bilan bir qatorda, ularni samarali qo‘llash uchun amaliy maslahatlar ham berilgan.

Ancha yillar mobaynida ta’lim usuliyoti shakllandi. Xalq cholg‘ularini qayta ta’mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko‘nikmalari ishlab chiqildi.Cholg‘uda ijroning eshitish uslubidan nota yordamida ijro uslubiga o‘tilishi o‘quv repertuari ustida ko‘p ishlashga, xalq cholg‘ularida ijro maktablarini tashkil qilishga olib keldi.Xalq cholg‘u ijrochilariga ta’lim berishning usuliy va didaktik asoslarini ishlab chiqish xuddi shu yo‘nalishda olib borildi. O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi xalq cholg‘ulari kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan bir qator fundamental darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, to‘plamlar chop ettirildi.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik maktablari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, xalq cholg‘ulari orkestrini tashkil qilish va ishlash bo‘yicha o‘quv-qo‘llanmalar yozildi. Shunday qilib, xalq cholg‘ulari yo‘nalishi bo‘yicha musiqiy ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini uchun ta’lim asoslari shakllandi.

Har qanday talaba butun o‘quv yili mobaynida yetarli miqdorda keng umumta’lim va kasbiy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Chunki hammamizga ma’lumki, ko‘pgina bitiruvchilarimiz o‘z hayotlarini pedagogik faoliyat bilan bog‘laydi. Bu esa psixologiya, pedagogika, usuliyot bo‘yicha yaxshi tayyorgarlikni, keng dunyoqarashga ega bo‘lishni talab etadi. Ammo shu paytgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan, ta’limning o‘ziga xosligini ochib beruvchi, ijrochilik madaniyati yutuqlarini ifodalagan umumiy va shaxsiy usullar ishlab chiqilmagan.

Xalq cholg‘u asboblari, ma’lumotlarga qaraganda juda qadim zamonlarda, eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilinadi. Cholg‘ulardan dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan, chunki eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatidan bevosita bir-biriga

bog‘liq bo‘lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa asboblari paydo bo‘ldi. Ijrochilar qarsak chalib, usul (ritm) ni ta’kidladilar, shovqinli cholg‘ular ta’sirini kuchaytirdilar. Keyinroq halq ustalari tomonidan  qamish va bambuk poyasidan surnay, hushtak, yana bir oz o‘tgach esa nay, naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltor (arfa) yasaldi. O‘sha paytdagi nay cholg‘u asboblari xozirgi zamon zamonaviy ko‘p teshikli naylardan bir oz farq qilgan.

Vaqt o‘tib, ushbu cholg‘ular takomillashib, ko‘p yillik naylar yuzaga keldi, so‘ngra torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg‘ulari paydo bo‘la boshladi. Ulardan saroy a’yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalanilgan.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog‘idao‘zbek halq cholg‘u asboblari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qobizlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoni G‘arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), Sharqda esa Grek Baqtriya Davlatlari tashkil topdi. Eramizning I - asrida O‘rta Osiyoning Janubiy qismida qudratli Ko‘shon shohligi tashkil topdi.Mahalliy Kushon sulolasi ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi ularoq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg‘ularining yaratilishiga shart-sharoit yuzaga keldi.Quldorlik jamiyati O‘rta Osiyo halqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg‘u asboblar ham takomillashdi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspedisiyalar (S. L. Tolstov, V. A. Vyatkin, M. V. Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O‘rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg‘ularini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay rubobsimon cholg‘u, hozirgi doiraga o‘xshash do‘mbra, nog‘ora va shu singari cholg‘u asboblarini chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproq qal’a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: Lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg‘u, qonun, ud,

rud, shemani, (musiqor) chag‘ona, chiltor, nay, burg‘u, surnay, karnay, doirasimon cholg‘ularda mashq qilishlari tasvirlangan.

Cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq, o‘yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarda ijro etilgani bizga ma’lum. Bayramlar ko‘pincha yil fasllari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyoda “Navro‘z”, “Lola sayli”, “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Uzum sayli” kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg‘u ansambllari xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog‘ora va chindavul kabi urma zarbli musiqa asboblari keng qo‘llanilgan.

Feodalizm davrida arab istilosi O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta’sir o‘tkazdi. VII-VIII asrlarda arab xalifaligida tirik jonzotni tasvirlashni taqiqlovchi, islom dinini yoyilishi, devoriy sur’atlarni shu jumladan musiqa cholg‘ulari tasvirining barham topishiga olib keldi.

IX asrga kelib Buxoro yirik madaniy markazga aylandi va ayni paytda yakka navoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o‘z ichiga olgan vokal-cholg‘u musiqa turkumlari rivojlandi. O‘rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv, maxsus musiqa ustaxonalari paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz shogird an’analari qaror topib rivojlandi.Musiqa cholg‘u asboblari ham shakllandi.Asboblarning yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari musiqa tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ular o‘z risolalarida musiqa cholg‘usini jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha ma’lumot berganlar. Abu Nasr Muhammad Forobiyning (**873-950**) “**Musiqa haqida katta kitob**” (“**Kitob al-musiqa al-kabir**”), Abu Ali Ibn Sinoning (**980-1037**) “**Davolash kitobi**” (“**Kitob um-shifo**”) qomusidagi **“Musiqa haqida risola”,** Al Xorazmiyning X asr “**Bilimlar kaliti**”, Safiuddin Urmaviyning (**1216-1294**) “**Oliyjanoblik haqida kitob**” yoki “**Sharafiy kitobi**”, Abdurahmon Jomiyning (**1414-1492**) “**Musiqa haqida risola**” kitoblarida musiqa ijrochiligi va halq cholg‘u asboblari haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Safiuddin Urmaviy istedodli ud cholg‘uchisi Urmiya shaxrida tug‘ilgan

(Ozarbayjonlik) mashhur xonanda, uning eng katta yutug‘i “**Modius**” ladning mukammal yo‘nalishlarini ishlab chiqqanligidir. Ibn Zaylning VI asr “Musiqa xaqida to‘liq kitobi” va “**Kitob ul-kabi fil-musiqiy**” uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobdir. U yangi usulni, musiqada ladlarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog‘iy XV asr, Ozarbayjonning Marog‘ shahrida tug‘ilgan bo‘lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida Samarqandda o‘tgan va Hirotda vafot etgan. “**Musiqa ilmda ohanglar to‘plami**” (Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy) risolasida musiqa haqidagi ta’limotni kamoncha, yetti torli g‘ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg‘ulari borligi haqidagi ma’lumotlar bilan boyitdi.

Al-Husayn XV asr asosan O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan torli musiqa asbobi dutor haqida ma’lumot bergan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo‘lib, o‘z risolasida kamonchali tanbur (sato) haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozining musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan.

Al Forobiy (IX asr) mohir ijrochi sifatida ham tanilgan. U damli cholg‘u nay asbobini, torli mizrobli cholg‘u tanbur va ud musiqa asboblarini juda zo‘r mahorat bilan ijro etgan. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg‘u asboblarining jamiyat hayotidagi rolini o‘rganishga ahamiyat beradi va u “Jangu jadallarda, raqslarda, to‘y-tomoshalarda, ko‘ngil ochar bazmlarda hamda ishq va muhabbat qo‘shiqlarini kuylashda chalinadigan cholg‘ular bor”, deb yozgan edi. Kitobning ikkinchi qismida halq cholg‘ulari lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shoxrux, qonun, dutor va boshqa cholg‘ular izchil va batafsil ta’riflanadi. Lyutnya-torli mizrobli cholg‘usi o‘sha davrda eng keng tarqalgan bo‘lib, o‘ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lada) lar joylashgan.

IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg‘u asbobi ko‘pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkazorti xalqlari orasida, O‘zbekiston va Tojikiston cholg‘uchiligida hozirgi kungacha saqlanib kelayapti. “Musiqa haqida katta kitob” da Forobiy yana bir cholg‘u asbobi tanburni ta’riflaydi. Olimning fikricha, tanbur forscha tan-bur ya’ni (Dilni tirnash) ud cholg‘usiga yaqin turadigan cholg‘udir

deydi.
Forobiy shuningdek nayni ham ta’riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg‘ularini ovoz hosil qilish uslubiga ko‘ra naysimon guruhga kiritadi, ya’ni nay quvurida havoning damli harakati orqali, tovush hosil bo‘ladi. Ulardan biri oddiy nay, yoki bir yo‘nalishda joylashgan ko‘p teshikli nay. Bu turdagi bo‘ylanma naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uning Vetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg‘a, Ozarbayjonliklar nay (juda kam uchraydi), qirg‘izlar uo, choor (cho‘ponlarning cholg‘u asbobi) o‘zbeklar nay deydi.

Olim va mashhur cholg‘uchi Forobiy surnay musiqa asbobi haqida bir qator ma’lumot beradi. Uning o‘rik yoki tut daraxtidan ishlanganligi vao‘sha davrda keng tarqalgan musiqa asbobi ekanligi haqida to‘xtalib o‘tadi.
Forobiy, shuningdek, Dunay, (Mizmar) ni ham alohida tilga oladi. Dunay hozirda qo‘shnay yoki turkman cholg‘usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo‘sh qamishdan yasalgan cholg‘u) ga o‘xshatadi.Forobiy o‘z risolasida o‘zi yashagan davrda mavjud bo‘lgan rubobni ham batafsil ta’riflaydi. O‘sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o‘xshash bo‘lib, pardalari dutor pardalariga o‘xshagan, dastasi ancha uzun bo‘lganligini, asosiy qismini yog‘och dekali pastki qismi esa charmdan ishlangan, dekali musiqa cholg‘usi deb ta’riflaydi. Shuningdek, musiqa asbobi changni ham ta’riflaydi.O‘sha vaqtgacha changning 15 ta tori bo‘lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig‘iga teng tovush qatorga ega deydi. Yana Forobiyning guvohlik berishicha ud cholg‘usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o‘ynagan “Cholg‘u asboblari haqida kitob” ida olim tanbur, rubob, chang, cholg‘u asboblarini udda chalayotgan kuyga yoki yakka navoz xonandaga, uyg‘un jo‘r bo‘lish, uchun sozlash usullarini tushuntiradi.Shunday qilib, Sharqning ulug‘ allomasi Al-Forobiy musiqa ilmining bir bo‘limi sifatida cholg‘u asboblarini o‘rganuvchi cholg‘ushunoslik sohasiga asos soladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o‘z davri musiqa cholg‘ularini ikki guruhga bo‘ladi: Mizrobli, noxunli, (Borbad, tanbur, rubob) va butun rezanator qapqog‘i bo‘ylab tortilgan ochiq cholg‘u asboblari (shohrux, chiltor, lira), chang (arfa).

Olim, ohangi inson ovoziga yaqin turadigan cholg‘u asboblari ud, rubobni batafsil ta’riflagan.O‘sha davrda yashab ijod etgan Safiuddin Urmaviy musiqa ilmini tizimini (sistemasi) ni rivojlantiradi. U “**Taqvadorlik kitobi**” da ud cholg‘usini ta’riflaydi: “Bilginki, cholg‘u asboblari ichida ud asbobi eng mashhur va zamonaviydir”. Udning dastasining to‘la chizmasi, uni sozlash haqida tasavvur beradi. A. Navoiyning tasdiqlashicha, mavjud 12 maqom qadimiy musiqaning asosidir.

Marog‘iy (XIV asr) g‘ijjakning ipak yoki pay torlari jez torlariga nisbatan ancha yaxshi va mayin ohang beradi deydi, o‘zining g‘ijjak yasash usuli haqida bergan ma’lumotlarida.Qo‘sh torli cholg‘u asbobi dutor haqida ilk ma’lumotlar Al-Husayniy (XV asr) ning musiqa kononlarida uchraydi. “Dutor” atamasining paydo bo‘lishiga, uning shaklan o‘xshash, ko‘p torli boshqa cholg‘u asboblaridan (Ozarbayjoncha soz, ud, tanbur kabi) farqlash asosiy sabab bo‘lgan.

XVII asrning mashhur ud va chang cholg‘usi ijrochisi Darvish Ali o‘zining risolasida o‘sha davrda qo‘llanilgan cholg‘u asboblari haqida batafsil ma’lumot bergan. U udni cholg‘ular “**Shohi**” deb ataydi. Udning juft sozlagan o‘n ikki tori bo‘lgan. Farobiy davridagi dastlabki uddan bir muncha farq qilgan. Risolada yozilishicha chang cholg‘ular homiysi Zuhroga bag‘ishlangan.

Ta’riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo‘lgan. Nay ham qadimiy cholg‘u sifatida tilga olinadi. Yana risolada qonun, rubob, qobiz, musiqor, enbon nayi (xitoyda tarqalgan) ruhavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg‘ulari to‘g‘risida yozilgan. Darvish Ali ta’rif bergan cholg‘u asboblaridan yettisasi: tanbur, chang, ud, qonun, rubob, qobiz, g‘ijjak, nay o‘sha davrda juda keng tarqalgan edi. risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo‘ja Abdul-lohi-lori, Mavlono Merik changi Buxoriy, Mavlono Qosim-Rabboniy, Sulton-Ahmadiy “Devona”, rubobchilar aka-uka Shayx Shamsi-Rabboniy va ko‘pgina boshqa mashhur ustozlarning nomlari tilga olinadi. G‘ijjak cholg‘uchisi Shoh Quliy-G‘ijjakiy shu musiqa asbobida ajoyib kuylar ijro etgan va uning yaratgan muhammas ritmidagi peshravi “Husayniy” alohida ajralib turadi.
Darvish Ali, naychi Sulton Ahmadni ijro etgan kuylariga, nayning sehrli

ohanglariga, san'at ixlosmandlari chuqur ta'surot qoldirganliklarini aytadi.

Ud cholg'usini Sulton Muhammad Uddiy Samarqandiyni muallif, noyob iste'dodli cholg'uchi, musiqa ijodkori sifatida tilga oladi. Buxorolik rubobchi Shayx Shamsiy-Rabboniy chalgan rubobni ohangini eshitib betakror ijrosidan hayratga tushgan odamlar chor atrofdan to'planaverishgan ekan. Shuningdek o'sha davrda o'n ikki maqom (Rahoviy, Husayniy, Zangula, Rost, Ushshoq, Navo, Bo'slik, Hijoz, Iroq, Isfahon, Zirafkand, Buzruk) mavjud ekanligi va shular asosida musiqa asarlari yaratgan bastakorlar ko'p ekanligini aytib o'tadi.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u šayd etgan cholgu asboblarning kattagina qismi ( nay, surnay, karnay, chang, qonun, rubob, ud, tor, tanbur, g'ijjak, qobiz, doira, nog'ora, dutor) O'rta Osiyoning O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, ham shu kunlargacha saqlanib keldi va ular takomillashmoqda. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek halq musiqa cholg'ulari, deb atash o'rinlidir.

O'rta-asr Sharq olimlarining asarlarida musiqiy cholg'ular, ular yaratgan ma'naviy madaniy muhit haqida tarixiy ma'lumotlar yetarli bayon qilingan, ammo ularda u yoki bu halq cholg'ularning texnik va badiiy imkoniyatlari juda oz.
XVIII asr oxiri- XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida halq va professional musiqa san'atining ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi: katta ashula, katta o'yin, Shodiyona, Mavrigi, Navro'z Shashmaqomlar, Chor maqom unga (dugoh Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz) kirgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo'lgan. Mashhur xonanda va sozandalar Domla Halim Ibodov, Usta Shodi Azizov, Levi Boboxonov, HojiAbdulaziz Rasulov, Sodirxon Bobosharipov, Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohibov, Fazliddin Shahobovlar shashmaqomga yangi hayot baxsh etishdi. O'zbek halq cholg'u asboblarining ijroviy imkoniyatlari doimiy kengaydi va takomillashdi.

Musiqa ustalaridan, xalq cholg'ularni yanada mukamallashtirishni talab etishdi. Bir oz vaqtdan so'ng qashqar rubobi va chang singari cholg'u asboblarini ovozlari yangidan-yangi yangradi.XX - asr boshlarida musiqa asboblarini

yaratishda halq musiqachiligini rivojlantirishda Usta Umar Ali koʻp mehnat qilib, cholgʻuchilarga tanbur, rubob, dutor, gʻijjak, qobiz, nay, surnay va shunga oʻxshash bir qancha musiqa cholgʻularini oʻz ustaxonalarida yasagan.

**1948** yilga Toshkent Davlat konservatoriyasida xalq cholg’u ijrochiligidan ta’lim berish boshlandi va oradan bir oz vaqt o’tgach orkestr sinfi tashkil qilinib cholg’u ijrochiligi rivojlanib ketdi. Endilikda nafaqat o’zbek kuylari, balki qardosh xalq musiqalari, Ukraina, Maldaviya, Turkman, Tojik, Qoraqalpoq, Uyg’ur musiqalari bilan bir qatorda Ovrupa kuylarini ham ijro etish yo’lga qo’yildi.

1955-60- yillarda orkestr ijrochilar soni yuzga yaqinlashib bordi, orkestr tarkibida urma zarbli litavra, triugolnik, baraban, doiralar, torli-kamonchali musiqa cholg’ulariga g’ijjak: prima alt, bas va kotrabaslar, torli urma chang cholg’usining prima, tenor, alt, bas, tanbur I-II, torli-mizrobli prima ruboblar, afg’on rubobi va qashqar ruboblari, shuningdek dutorlar oilasi: prima, sekunda, alt, tenor, bas, kontrabaslar, damli puflama asboblari nay, pikkalo, goboy, klarnet, surnay, qo’shnay asboblari kiritildi va shu musiqa cholg’ulari ijrosida turli halqlar musiqasini ijro etish imkoniyatlari yaratildi.

Ana shunday tamoyillardan biri musiqa asbobini chalish usuli va vositalari nuqtai nazaridan tasnif etish hisoblanadi. Mana shu jihatdan oʻzbek milliy musiqa cholgʻulari quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

**Urma musiqiy cholgʻular** - doira, nogʻora, qayroq, safoil, chindovul, tavlak, sagat (tarelka).

**Damli chogʻular** - sibizgʻa, nay, qoʻshnay, sumay, bulomon, kamay.

**Torli cholgʻular:** Bu cholgʻular ham oʻz navbatida quyidagilarga boʻlinadi;

***1)*** **torli noxunli mezrobli cholgʻular**- qashqar rubobi, tanbur, ud, qonun.

***2)*** **urma jarangli torli cholgʻular** - chang;

**3)chertma cholgʻular**- doʻmbira, dutor, chang deb nomlanib kelingan burchakli arfa ham shular jumlasidandir.

**Kamonli cholgʻular-**gʻijjak, qoʻbiz, sato.

**Chertma-agʻrofon (damli) cholgʻular-** chanqovuz.

Musiqiy cholgʻulaming vujudga kelishida xalqning hayoti, turmush tarzi,

ruhiy olami, hissiy (emotsional) boyligi, dunyoqarashi, an’analari yetakchi omil hisoblanadi. Umuman olganda sozlaming yaratilishi insonning o‘z dunyoqarashi, falsafiy estetik kechinmalarini badiiy ifodalashga bo‘lgan ma’naviy ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Musiqiy sozlaming yaratilish jarayoniga nazar soladigan bo‘lsak, ibtidoiy tosh davridagi mavjud “qayroqdan” tortib hozirgi zamonaviy cholg‘ulargacha bo‘lgan o‘nlab cholg‘u asboblari namunalarining guvohi bo‘lamiz. Bu cholg‘ular orasida asrlar osha mukammallashib bizgacha yetib kelgan sozlar ham mavjud. Bizningcha, musiqiy sozlar tarkibiga kiruvchi urma va damli sozlar ilk bor paydo bo‘lib keng ommalashgan. Ularning ommalashuvida hayot taqozosi muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy taraqqiyot va turli tarixiy voqealar hamda vaziyatlarda musiqiy cholg‘ulaming turlicha shakllari yuzaga keldi. Fikrimizcha, yakka ijrochilik eng qadimiy ijro shaklini tashkil etsa kerak. Bunga misol qilib ovchilik bilan bog‘liq ijro jarayonlarini yoki xalq marosimlarida qo‘llanilgan qattiq ovozli, ochiq maydonlarda chalinish uchun mo‘ljallangan urma va damli sozlarni keltirish mumkin.

Eramizning IV-V asrlaridan boshlab musiqiy cholg‘ulaming va ijrochilik yo‘llarining mukammallashuvi yuzaga kela boshladi. Uzoq tarixiy taraqqiyot mobaynida yaratilgan turli san’at namunalari, ijrochi yoki musiqa cholg‘ulari aks ettirilgan tasviriy obidalami tahlil etish shuni ko‘rsatadi.Darhaqiqat, ijtimoiy hayot rivoji jarayonida musiqiy janrlar, cholg‘ularning turli namunalari ham kashf etildi.Shu o‘rinda biz hozirgi kunda ko‘p ishlatiladigan ayrim musiqiy cholg‘ularning tarixi va ulaming ijro imkoniyatlari, qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlami yoritib berishni lozim deb topdik.

# II-QISM
# OILADOSH CHOLG‘ULAR HAQIDA MA’LUMOT
## URMA CHOLG‘ULAR

**URMA-** cholg‘ular turiga doira, nog‘ora, safoil, chindovul, tavlak, qoshiq, sagat (tarelka) kiradi. Har bir cholg‘uning o‘ziga xos jarangi, sadolanishi, ko‘rinishi va ijro usullari mavjud. Urma musiqiy cholg‘ulari juda qadimiy bo‘lib, ulardan o‘zbek xalqining to‘y marosimlarida, bayramlarida ochiq va yopiq joylarda (xonalarda, saroylarda) yakka hamda ansambl shaklida keng foydalanilgan. Hozirgi kunda ham o‘zining qadimiy ko‘rinishini deyarli saqlab qolgan milliy cholg‘ularimizdan biri doiradir. (1-rasm)



**1-rasm**

**DOIRA-** halqasimon shaklda bo‘lib, uzum (zang) tanasidan, klyon, yong‘oq, tut, o‘rik va boshqa qattiq daraxtlardan egma holda yasaladi. Diametri 37-45 santimetr bo‘lib, asosan toy terisi yoki buzoq terisi bilan qoplanadi. Halqaning ichki qismida jarangni saqlab qoluvchi kichkina halqachalar 2, 2,5 santimetr oraliqda butun gardish bo‘ylab joylashtiriladi.

Doiraning boshqa o‘zbek cholg‘ularidan farqi (nog‘oradan tashqari) olovda qizdirilib sozlanadi, ya’ni jarangdorligi oshiriladi.Topilgan qazilma boyliklardan bizga ma’lumki, doira (buben) bizning asrimizgacha bo‘lgan II - asrda ham mavjud bo‘lgan. O‘rta Osiyoda u bundan 2000 yil oldin paydo bo‘lgan. Doira hozirgi kunda ham o‘zbek xalq cholg‘ulari orasida alohida o‘ringa ega. U yakka holda yoki ansambl bo‘lib ijro etiladi. Shunisi quvonarliki hozirda faqat doirachilardan tashkil topgan ansambllar ko‘paymoqda. Misol tariqasida Elmurod Islomov, Husan Nosirov, Abbos Qosimovlar rahbarligidagi doirachilar ansambllarini keltirish mumkin.

Doira imkoniyati juda keng cholg‘ulardan hisoblanadi.Akademik Yunus Rajabiy maqomlarimizni notaga olgan vaqtda doira usullarini yozish uchun bitta nota chizig‘idan foydalangan.Hozirda esa doira usullarini to‘liq notaga tushirish va kelajak avlodlarga to‘liq qoldirish maqsadida to‘rtta nota chizig‘idan foydalaniladi.Bu esa har bir qo‘l va barmoqlar uchun alohida usullami, cho‘zimlami belgilash imkonini beradi.**(**2, 3-rasm**)**



**2-rasm**



**3-rasm**

Doirachilik maktabi asosan ustoz va shogird an’analari orqali rivojlamb bizgacha yetib kelgan. Bunga misol qilib ustoz doirachilardan Usta Olim Komilov, To‘ychi Inog‘omov, G‘ofir Azimov, Qahramon Dadayev, Odil Kamolxo‘jayev, Elmurod, Xolmurod, Dilmurod Islomovlar, Hasan Azimovlaming xizmatlarini alohida qayd etish mumkin.Xalq orasida keng tarqalgan, asosan ochiq joylarda chalish uchun mo‘ljallangan xalq cholg‘ularidan biri nog‘oradir.

**NOG‘ORA-** ikkita har xil kattalikdagi sopoldan yasalgan va usti hayvon terisi bilan qoplangan cholg‘udir.Teri nog‘ora asosiga ingichka tasmalar bilan tortib mahkamlanadi. Katta nog‘ora bum, kichik nog‘ora bak yoki rez nog‘ora deb ataladi. Bunday ko‘rinishdagi nog‘oralar qo‘sh nog‘ora deyiladi va ko‘proq sayllarda, bayramlarda, to‘ylarda ishlatiladi. (4-rasm)

Qo‘sh nog‘oralar ikkita bir xil uzunlikdagi daraxt novdasidan qilingan tayoqchalar bilan urib chalinadi.Bum bilan bak orasidagi o‘lcham taxminan kvarta intervalini tashkil qiladi.Nog‘oraning nota cho‘zimlarini ifodalash uchun bitta nota chizig‘idan foydalaniladi. Chiziqning ostiga joylashgan belgi “**bum**”, ya’ni katta nog‘oraga, chiziqning ustiga joylashgan belgi “**bak**”, kichik nog‘oraga tegishlidir. (4-rasm)



**4-rasm**

Bundan tashqari qadimda yakka nog‘ora (do nog‘ora) ham qo‘llanilgan. U katta o‘lchamda bo‘lib, xon va amirlaming jangga kirishi oldidan yoki jangdan zafar bilan qaytganlarida kutib olish vaqtida chalingan.

Nog‘oraning ko‘pincha ikkitasi chalinadi; hajmi jihatidan birinchisi ikkinchisiga nisbatan kichikroq bo‘ladi. Nog‘oralardan birinchisi (kichigi) - bak, ya’ni baland, ikkinchisi - bum, ya’ni past tovush beradi. Nog‘ora olov yoki oftobda qizdirilib, tovushi balandlashtiriladi. Turli bayram, sayil va ko‘pchilik to‘plangan yig‘ilishlarda katta nog‘ora ishlatiladi. Buni - **ko‘s**nog‘ora deb atashadi. Nog‘ora tuvaklarining teri tortilgan qismiga maxsus cho‘plar bilan urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi. Nog‘oraning sadosi juda kuchliligi uchun ham undan faqat ochiq havoda ijro etiladigan karnay-surnay, doyra cholg‘ulari bilan birgalikdagi ansambl tarkibida foydalanishadi. Nog‘orada asosan ikkita tovush (bak va bum) bo‘lgani uchun ham uning notalari bir chiziqda yoziladi**.** Urma cholg‘ulardan biri qayroqdir.

**QAYROQ** - Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida tarqalgan urma musiqa cholg‘ularidan biridir. Bir-biriga urilib chalinadigan asboblardan - qayroq, yog‘och qoshiq, qo‘ng‘iroqchalarni (raqsga tushganda qo‘l va oyoqlarga kiyiladi) eslatib o‘tish mumkin. Qayroq suv bo‘ylaridan topiladigan silliq va yupqa tosh qayroqchalardir. Raqqos va raqqosalar o‘ng va chap qo‘llariga juft-juft qayroqlarni ushlab, musiqa usullarini chertib, o‘z raqslarini bezatib, jilo beradilar. Qayroqda ijro etishning qulayligi uchun qayroq jufti yupqa temirlardan bo‘ladi. Shunda qayroqlar raqqoslarning qo‘llaridan tushib ketmaydi. (5-rasm)



**5-rasm**

O‘zbekistonda raqslar nomma-nom ataladi, jumladan katta o‘yin, zang o‘yini, nog‘ora-doyra o‘yinlari qatorida qayroq o‘yini ham keng tarqalgan. Ayniqsa Xorazmda hozirgi davrda ham yaxshi qayroqchi raqqosa va raqqoslar bor. Juma qayroq, Ergash qayroqkabi qayroqchilar, Tamaraxonim hamda Qori Yoqubov ansambllarida birga faoliyat ko‘rsatib, ular bilan birga ijodiy safar qilib, dunyo kezganlar, ushbu konsertlarda o‘zbek milliy qayroq raqslarini namoyon qilishgan. **Qayroq** - yupqa qilib silliqlangan, uzunligi 10-15 santimetrlar atrofida to‘rtta toshdan yasaladi. U asosan raqsga tushuvchiga jo‘mavoz sifatida qo‘llaniladi. Qayroq bilan raqsga tushish ko‘proq Xorazm vohasi va Qoraqalpog‘istonga xosdir. Qayroqning ritmik belgilari bitta nota chizig‘ida ifodalanadi. Raqs tushuvchiga jo‘mavoz sifatida qo‘llaniiadigan cholg‘ulardan biri safoildir.

**SAFOYIL** - O‘zbekiston, Tojikiston va Xitoyda keng tarqalgan shiqildoq tuzilishidagi urma cholg‘u asbob. Safoyil ikki bo‘lak qattiq yog‘och kaltakchasidan iborat. Bu kaltakchaga ikkita temir aylanaga mayda temir halqachalar o‘rnashtirilgan. Safoyilni silkitib, yelkaga urib, shovqinli, turli murakkab tovush chiqariladi. Bu cholg‘u Qashqar va G‘uljadan O‘zbekistonga kirib kelgan. Safoyil uyg‘ur xalqining milliy cholg‘ularidan bo‘lib, raqsga tushganda erkak raqqoslar qo‘lida yelkaga urib chalishadi. Ijro etilayotgan musiqa usuliga moslaydi. Safoyil ko‘proq raqslarda qo‘llaniladi. (6-rasm)

Uyg‘ur xalqining sho‘x qo‘shiqlari, raqslaridan xabardormiz. Shu raqs turlaridan biri yigit va qiz raqsidir. Raqs duetida albatta yigit qo‘lida safoyil bo‘ladi va uni zo‘r joziba bilan ishga soladi. O‘zbekistonlik uyg‘ur sozandalar ansambllaridan safoyil cholg‘usi mustahkam o‘rin olgan.


6-rasm

**Safoil-** Har bir halqaga o‘n oltitadan kichik halqachalar joylashtirilgan. Qadimda safoildan darveshlar, ko‘z boylog‘ichlar keng foydalanishgan. Safoildan tovush chiqarish silkitish va urish hisobiga amalga oshiriladi. Bu cholg‘udan jo‘rnavoz sifatida foydalanish usuli quyidagicha;

-o‘ng qo‘lda ushlab o‘ng yelkaga urish;

-o‘tirgan holda tizzaga urish kabi holatlarda amalga oshiriladi.Safoilning ritmik belgilari bitta nota chizig‘ining o‘zida ifoda etiladi.

Qadimda keng qo‘llanilgan cholg‘ulardan biri chindovuldir.

**CHINDOVUL -** dubulg‘a shaklida bo‘lib, asosan misdan yasaladi va hayvon terisi bilan qoplanadi. U qo‘l yoki maxsus moslama bilan urib chalinadi. Qadimda chindovul ko‘pincha otning egariga mahkamlanib, undan harbiy yurishlardafoydalanilgan va ovga chiqish oldidan chalingan. Bu cholg‘u o‘zbek va tojiklarda chindovul, qozoqlarda dovul pas, qirg‘izlarda dovul bas deb yuritiladi. Mazkur cholg‘udan XX - asr boshlaridan boshlab kamroq foydalanib kelinmoqda. (7-rasm)


7-rasm

Hozir musiqamiz amaliyotida shunday kam foydalaniladigan cholg‘u sagat (tarelka) dir.

**SAGAT -** ikkita aylana disk shakiida bo‘lib, mis, kumush va boshqa metal aralashmasidan yasaladi.Tarelka bir-biriga ohista urib yoki maxsus moslama yordamida chalinadi.(8-rasm) Sagatning ham ritmik belgilari bitta notachizig‘ining o‘zida yozilaai.Bu cholg‘udan ham qadimda harbiy yurishiarda keng foydalanilgan.O‘zbek xalq cholg‘ularining yana bir turi damli cholg‘u asboblaridir. Bu turdagi cholg‘ular puflab chalingani bois “damli cholg‘ular” deyiladi vao‘z navbatida ikki guruhga ajratiladi:


8-rasm

## DAMLI CHOLG‘ULAR

**NAY -** qadimiy puflama o‘zbek xalq musiqa asbobi. Nay O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, ansamblda, o‘zbek xalq asboblari orkestrida muhim o‘rin tutadi, yakka holda ham chalinadi. Ovoz hajmi kengligidan xalq kuylarida, maqomlarda qo‘llaniladi. Tovushi baland bo‘lganidan ansamblda ko‘proq boshlovchilik vazifasini ham bajara oladi. Barmoqlar bilan berkitiladigan olti teshikchadan iborat diatonik tovushqatoriga ega. Umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi **lya** danto‘rtinchi oktavadagi**re**gaqadar. Notalar skripka kalitida eshitilganicha yoziladi. Barmoqlar bilan teshikchalarni to‘la yo yarim berkitish va turlicha puflash yo‘li bilan baland, past tovushlar chiqaziladi. Nayni puflaydigan va barmoqlar bilan bosiladigan birinchi teshikcha o‘rtasida yana bir teshikcha bo‘lib, bunga yupqa qog‘oz yopishtiriladi, buni asosan xitoylik ijrochilar qo‘llashadi. Xitoyda nay g‘arovdan yasalib, o‘sha teshikchani g‘arovdan chiqadigan yupqa parda bilan yopishadi. Bu tovushni to‘lqinlatib chiqazishga yordam beradi. Nayning ikkinchi uchida doimiy ochiq turadigan to‘rtta teshikcha (ikkisi ikki yonda, qolgan ikkisi ost tomonda) ayrim pardalardagi tovushlarni yumshatib berish uchun xizmat qiladi. Nayning umumiy uzunligi 500-600 mm. Nay yog‘ochdan, g‘arovdan va misdan yasaladi. Shunga ko‘ra , “yog‘och nay”, “g‘arov nay”, “mis nay” deb ataladi. ***(Naysimon cholg‘ularning oilasi 11ming yil oldin paydo bo‘lgan. Masalango‘ri- qozg‘on go‘ridan topilgan cho‘pon nayi burgut qanotidan yasalgan bo‘lib, o‘zbekistonda 7 va 3,5 ming yillik naysimon cholg‘ularning tarixi ham mavjud).***

Ko‘hna rivoyatlarning birida aytilishicha, Cho‘pon bobo ichi bo‘sh qamishni kesib olib, unda barmoq bilan berkitib-ochadigan teshikchalar o‘yibdi. Unga “nay” deb nom qo‘yibdi. Farzandlariga cho‘ponlik tayog‘ini topshirar ekan, nayni ham qo‘shib beribdi. Ular cho‘lu biyobonlarda, yam-yashil yaylovlarda qo‘y boqib, bobosi yasab bergan nayni chalib yurishibdi. Rivoyat qilishlaricha nay ohangiga “asir” bo’lgan qo‘ylar podadan aslo ajralmas ekan. Yillar o‘tib, bu soz shaharlik mashoyixlar qo‘liga tegibdi. Ular ham nayning sehrli tovushidan lol qolishibdi. Uni yanada takomillashtirib, zeb berishibdi. Nayni qamishdangina emas, balki

yog‘ochdan, misdan va boshqa turdagi metallardan ham yasab ko‘rishibdi. Usta naychilardan Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov va hozirgi kunda Mirza Toirov, Abdulahat Abdurashidovlar nomi barchaga ma’lum. Bu ustozlarning “Cho‘li iroq”, “Chorgoh”, “Bir kelsin” va shu kabi ajoyib asarlarni ijro etishganda kishining ko‘ngli yoziladi va ruhi ko‘tariladi va a’lo kayfiyatni his etadi.(9-rasm)



**9-rasm**




Nay ham pikkologa o‘xshab orkestrning yuqori tovushlarini ijro qiluvchi cholg‘u hisoblanadi va yozilganidek eshitiladi. Masalan:




Baland registrlar tovushi jilosi jihatidan har biri o‘ziga xoslik kasb etadi. Ya’ni, pastkiregistrda quyuq, so‘lim jaranglagan holda ***pp*** chalish ancha qiyin. O‘rta registr jozibador vatobora balandlashgani sari tovushlar keskin tus oladi. Ikkinchi oktava ***lya***va undan balandnotalar ***f*** chalish orqali hosil qilinadi. Nayda har xil passaj, melizm, sakratma usulidaasarlar chalish mumkin.

Nay to‘liq orkestrda asosan ikkitadan, juft-juft ishlatiladi. Agar kompozitor (cholg‘ulashtiruvchi) o‘z asarida mohiyatdan kelib chiqib ma’qul ko‘rsa uch yoki to‘rttadanham cholg‘u partiyalarini partituraga kiritishi mumkin. Buning uchun (ijro nazardatutilayapti) orkestrga qo‘shimcha sozandalarni taklif etish zarur bo‘ladi.

| Cholg'uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo'yicha | Eshitilishi bo'yicha | |
| Nay | («lya») | «Lya» birinchi oktavadan – «Re» 4-oktavagacha | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |

**Nay**ning XIV-XV asr minatyuralarida tasvirlanganligini inobatga oladigan bo'lsak, uning qadimiy cholg'u ekanligi ma'lum bo'ladi. Nay qamishdan (g'arov nay), yog'ochdan, oq tunukadan (brinji nay) yasaladi. Nayning puflash uchun mo'ljallanagan teshigidan tashqari yana oltita teshigi mavjud. Ayrim naylarda bu teshiklar soni yettita bo'ladi. Xalq sozandalarining fikricha, puflaydigan teshik bilan birinchi barmoq bosiladigan teshik o'rtasiga qog'oz yopishtirib qo'yilsa tovushga sayqal berar emish. Mazkur sozlaming uzunligi 50 santimetr bo'ladi va bir uchi probkabilan berkitiladi. Puflash uchun va barmoqlar bilan berkitish uchun mo'ljallangan teshiklardan tashqari y ana ovoz muvozanatini saqlashga yordam beradigan yana ikki yoki uchta ovoz teshiklari mavjud. Puflash natijasida turli tovush va qochirimlarning hosil qilinishi nay chalishning xarakterli xususiyatlaridan biri desak, yanglishmaymiz.

Nay chaluvchi sozanda nayning chalish uchun mo'ljallangan teshigiga labini shunday qo'yishi kerakki, lab uning to'rtdan bir qismini berkitishi lozim.Qo'l barmoqlarini yaxshi ishlata bilishi kerak. Sozni sadolashda nafas olish tez, chiqarish esa juda tekis hamda davomli bo'lishi talab etiladi

**QO'SHNAY** - juda qadimdan Sharq xalqlarida, jumladan o'zbek, tojik xalqlari orasida keng tarqalgan cholg'u sifatida bizga ma'lumdir. Bu cholg'uning o'ziga xos xususiyati bir-biriga bog'langan ikkita qamishdan yasalganligi va ikkalasining birga ijro etilishidadir. Qo'shnayning umumiy uzunligi 30 santimetrgacha bo'lishi mumkin. Biz yuqorida qo'shnayni juda qadimiy cholg'u asbobi dedik. Uning qadimiyligini yapon olimlari yana bir bor isbotladilar. Qidiruv ishlari natijasida Namangan viloyati Pop tumanidagi Kultepadan uysifat to'rtburchak sog'ona topilgan. Uning ichida qamishdan yasalgan oltita tobut chiqqan.EramizningV-asrlarida insonlar hayotlik davrlarida qaysi ish bilan bilan berkitiladi. Puflash uchun va barmoqlar bilan berkitish uchun mo'ljallangan

teshiklardan tashqari yana ovoz muvozanatini saqlashga yordam beradigan yana ikki yoki uchta ovoz teshiklari mavjud. Puflash natijasida turli tovush va qochirimlarning hosil qilinishi nay chalishning xarakterli xususiyatlaridan biri desak, yanglishmaymiz.

Demak ko‘milgan odam musiqachi, ya’ni qo‘shnaychi bo‘lgan. Bu topilgan qo‘shnay ham V- asrga taalluqli. Bu cholg̔ular eramizdan oldingi 2000 yilga to‘g‘ri keladi va hozirgi qo‘shnayga o‘xshagan cholg‘uga monand bo‘lgan. Shu o‘rinda mashhur olim Fitratning “o‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobida aytilgan qo‘shnay haqidagi fikrlami keltirishni lozim topdik.“Fikrimizcha, bizda cholg‘ulaming eng ibtidoiysi qo‘shnaydir, Bu kun oradan chiamoq uzradir. Juda yoniq bir tovushi bor. Ikki qamishni yonma-yon qo‘yib bog‘laydilar.Har ikkisini ham bosh tomonlaridan kesib til chiqartadilar-da, og̔izga qo‘yub puflaydirlar”. (10-rasm)



**10-rasm**

Asosiy tovushqatori.



Qo‘shnay-ikkita bir xil kattalikdagi qamish naychalardan yasalgan bo‘lib, uning texnikimkoniyatlari cheklangan.

Diapazon                                        Foydalaniladigan tovush kengligi



Orkestrda garmonik tovushlarini boyitish uchun ikkinchi, uchinchi tovushlar tuzimiberilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:




Orkestrda qo‘shnay asosiy (sola) asosiy kuyni ijro eta oladi. Orkestr jo‘rligida kuylarham chalish imkoniyatiga ega. Bu asbob uchun skripka kalitida uchta belgili tonliklardayozilgan kuylarni tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi, yozilganidek eshitiladi. Qo‘shnayningdinamik imkoniyatlari katta, ***pp*** dan ***ff*** gacha chalish mumkin.

| Cholg‘uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo‘yicha | Eshitilishi bo‘yicha | |
| Qo‘shnay | («lya») | «Re» birinchi oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |

Puflama cholg‘ular guruhida ishlatilishi mumkin bo‘lgan – karnay, an’anaviy surnay,sibizg‘a, changqobuz, kichik nay (nay pikkalo) kabi cholg‘ular – epizodik cholg‘ularsifatida ishlatilishi mumkin. Ular o‘quv jarayonida ham, mustaqil ijodiy jarayonda hamalohida pishgan ijodiy loyiha (fikr)ga binoan tanlanadi. Shuning uchun epizodikcholg‘ularni zarur topilsa, mustaqil o‘rganib olasiz.

Qo‘shnayda ijro etish uslubida ikkita naychaga barobar puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi **birinchi oktavadagi *re***dan **ikkinchi oktavadagi *sol*** ga qadar, ayrim qo‘shnaychilar **ikkinchi oktavadagi *lya, si*,** hatto bundan yuqori tovushlarni ham hosil qiladilar. Qo‘shnayda o‘zbek musiqasi uchun xos bo‘lgan melizmlarni ijro etish juda qulaydir.

Qo‘shnayning puflanadigan berk uchi tomonida tilchalami qisqartirish va uzaytirish uchun ipdan qilingan halqa mavjud. Shu tilchalarni lablar bilan qisqartirish va ulami bosish kuchini o‘zgartirish orqali tovushqator hosil qilinadi. Qo‘shnayning tembri juda baland va yoqimlidir. Hozirda qo‘shnay xalq cholg‘u ansambllarida keng qo‘llanilyapti. Ayniqsa Xorazm vohasi, Qoraqalpog‘istonning

ayrim hududlari, Toshkent shahri hamda viloyatida qo‘shnaydan yakkanavoz soz va jo‘rnavoz soz sifatida yaxshi foydalanilmoqda. Diapazoni birinchi oktava re tovushidan ikkinchi oktava sol tovushigacha, lekin cholg‘uchining mahorati yetarli bo‘Isa undan yuqori tovushlami ham hosil qilish mumkin.

Ustoz qo‘shnaychilar sifatida Ahmadjon Umrzoqov, Qayum ota, Qurbonboy ota, Mirzasharif Mirbaratov, Nasriddin Ro‘ziyev kabilarni ko‘rsatish mumkin.

**BULAMON** (balabon) surnaydan ko‘ra birmuncha kichikroq, qattiq yog‘och tanasidan ishlangan cholg‘u bo‘lib, tovush hosil qilinadigan qismi surnaynikidan farq qiladi. Bulamanda “nay pachoq” o‘rnida sibizg‘asimon til ochilgan qamish bo‘lagidan foydalaniladi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ularning yettitasi ustki tomonda va bittasi pastki tomonda bo‘ladi. Bulamanning tovush tembri (kuchi) surnaynikidan pastroq bo‘ladi. Shuning uchun ham bu cholg’uni ansambl tarkibiga kiritib, qo‘shiq ijrochilariga jo‘r bo‘lishda foydalanish mumkin. Bu cholg‘u Xorazmdan boshqa hududlarda deyarli ishlatilmaydi.

Bulomonqadimiy soz bo‘lib Xorazm vohasida ko‘p ishlatiladigan cholg‘u asbobdir. O‘rik yoki tut yog‘ochidan yasalib ichi boshidan oxirigacha o‘yilgan. Yuqori ingichka qismiga esa o‘rnashtirilgan “tili” qamishdan ishlangan.Ko‘rinishi surnayga o‘xshaydi, ammo undan bir oz kichik. Unga sakkizta teshik bo‘lib, yettitasi ustki qismida va bittasi orqa tomonda joylashgan. Orqa tomonidagi teshik sozning yuqori qismida bo‘lib, chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan yopiladi. (11-rasm)



11-rasm

Bulomonning tovushqatori diatonik shaklda bo‘lib quyidagicha tuzilgan:



Ovozining kengligi **re** birinchi oktavadan **re** uchinchi oktava tovushigacha. Notasi skripka kalitida yoziladi va bir oktava past ovoz beradi.




Bulomonda ijro qilish imkoniyatining mavjudligi, diapazonining kattaligi tufayli u boy repertuarga ega.Unga oddiy Xorazm xalq kuylari bilan bir qatordamaqomlarning cholgʻu qismi hamda boshqa murakkab janrdagi musiqalardan namunalar ijro etish mumkin. Ijrodagi boy imkoniyati tufayli u turli ansambl va orkestrlar tarkibida doimiy ishtirok etadigan asosiy cholgʻu asbobdir.

**KARNAY** qadimiy cholgʻulardan biridir.U ham ochiq joylarda, maydonlarda ishlatiladigan cholgʻular turiga kiradi. XVI - XVII ishlangan miniatyuralarda va Amir Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”siga ishlangan miniatyuralardan bilishimiz mumkinki, kamay juda qadimiy cholgʻudir. U asosan jangchilamingʻjangga kirish oldidan chalingan va oʻz navbatida qoʻshinga jangovor ruh bagʻishlagan. 1527 yil Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniatyuralarda va “Shohnoma” asariga ishlangan Muhammad Murod Samarqandiyning illyustratsiyalarida ikki xil kamay tasvirlangan:

**1.Tirsaksimon karnaylar.**

**2.Toʻgʻri karnaylar.**

XIX asr oxirlarida tirsakli karnaylar Buxoro amiri saroyida chalingan. Amirlikning yemirilishi oqibatida bu turdagi karnaylar asta - sekin yoʻqolib ketgan. Hozirda faqat toʻgʻri kamaylardan foydalaniladi. Kamay metal - latun qorishmasidan yasaladi. Qadim davrlarda kamay harbiy yurishlar, ommaviy bayramlardan tashqari sport musobaqalarida ham ishlatilgan. Ushbu fikrimizni XVII - XVIII asr Eron miniatyuralarida ishlangan tasvirlar tasdiqlaydi. Qadimda va hozir ham kamay yakka oʻzi ijro etilishidan tashqari sumay, nogʻora, doira joʻrligida oʻziga xos ansamblni tashkil qiladi. (Hozirda Fargʻona vodiysida nogʻora oʻmiga baraban ishlatilmoqda). Bu ansambllar. Navroʻz tantanalarida, xalq sayllarida, bayramlarda, toʻy tomoshalarda va boshqa yigʻinlarda faoliyat koʻrsatmoqda. (12, 13-rasmlar)


12-rasm


13-rasm

**Karnay**qadimiy musiqa asboblari orasida eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sozdir. Uning uzunligi ikki metr atrofida bo‘lib, mis yoki nuqrasimon tunukadan naycha shaklida yasaladi. Og‘zi kattalashib boruvchi konussimon shaklga ega, puflama tomonida mushtuk o‘rnatilgan bo‘ladi. U bir–biriga kiritiladigan uch bo‘lakdan iborat. Tik turib chalinadi, ovozi yo‘g‘on va kuchli.

Karnay tuzilishi va ijro imkoniyatining torligi (faqat bir oktava oralig‘idagi to‘rt yoki besh tovush) tufayli kuy chaladigan maxsus cholg‘u emas. U faqat doyra, nog‘ora usullariga jo‘r bo‘la oladigan, ritmik tuzilmali ma’lum tovushlarnigina bera oladigan musiqa asbobi sifatida foydalaniladi. Lekin karnay tovushlari cholg‘uga xos boy tembri qobig‘ida ancha salmoqli tus oladi. Ana shu xususiyati tufayli ham karnay asrlar davomida (xabar) beruvchi musiqa asbobi sifatida keng

qo‘llanib kelingan. Karnay (surnay va nog‘ora bilan birgalikda) turli tomosha, sayl va tantanalarning doimiy ishtirokchisi, ularga ma’lum an’anaviy tus beradigan cholg‘u va shu an’analarning ajralmas bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘tgan asrlarda xonning saroydan chiqib ketishi yoki qaytib kelayotganini xabar qilish, amir sarbozlarining mashqlarida hamda harbiy yurishlarda shartli signallar beruvchi cholg‘u sifatida ishlatilgan.

Ma’lumki, hozirda karnay, doyra, nog‘ora va surnay jo‘rligi katta ommaviy tantanali marosimlarning jarchisi sifatida keng qo‘llanilmoqda.

**SIBIZG‘A** yoki sibiziq juda qadimiy musiqiy cholg‘ulardan biri ekanligi ma’lum bo‘lib, u chorvachilik rivojlangan hududlarda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilinadi. Sibizg‘a g‘arov qamish bo‘lagidan tayyorlanadi va qat’iy o‘lchamlari belgilanmagan bo‘ladi. Har bir ijrochi o‘z ixtiyoriga ko‘ra xohlagan hajmda tayyorlab, 5 tagacha teshiklar ochishi mumkin. Keyingi paytlarda unutila boshlagan bu cholg‘uning qayta jonlantirilishi Surxondaryolik Nodir bobo va uning farzandlari Abdurashid bobolarning ijrochilik an’analarini davom ettirishga katta yordam berdi. Bugungi kunda katta bayram tantanalari va folklor jamoalari chiqishlarining sibizg‘a tovushini yangrashi bilan boshlanishi odat tusiga aylanib bormoqda. (14-rasm)



**14-rasm**

**S**ibizg‘a cholg‘usining takomillashtirilgan va ikki donasini birgalikda qo‘shib chalinishidan hosil bo‘lgan musiqiy cholg‘u - **qo‘shnaydir**. Qo‘shnay tayyorlanadigan qamishlar bir oz yo‘g‘onroq va qalinroq bo‘ladi. Har ikkala qamish bo‘laklari xuddi sibizg‘adagi singari til ochiladi va har bir bo‘lakning uzunligi va yo‘g‘onligi bir xil bo‘lishi talab qilinadi. Kerakli tovushlarni hosil qilish uchun esa har ikkala bo‘lakda ham bir xil masofada 7 donadan teshiklar ochiladi. Qo‘shnay cholg‘usi Xorazmda kengroq qo‘llaniladi. Uning sadolanishida “g’izillashga” o‘xshagan tebranish seziladi.

**CHANQOVUZ** yurakni to‘lqinlantiruvchi tovushi bilan juda ham past eshitilar – eshitilmas ovozga ega. U 8–10 sm uzunlikdagi temirdan yasalgan aylanma ramka oralig‘ida egilgan sakkiz santimetrcha keladigan yupqa po‘lat til o‘rnatilib tilchaning uchi egilgan. U chap qo‘l bilan ushlanib tish bilan qisib, o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich hamda kichkina barmoqlari bilan chertilganda bir necha xil tovush chiqaruvchi cholg‘u asbobdir. Chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirib to‘lqinlantiriladi. Tovushning baland–pastligi chanqovuz tilchasining uzunligi va qalinligiga bog‘liq. (15-rasm)

Chanqovuzda chalinadigan kuylar odatda hech qanday marosim bilan bog‘liq bo‘lmagan, shuningdek u o‘z tuzilishi jihatdan ham boshqa cholg‘ulardan deyarli ajralib turadi. Chanqovuzda chalingan kuylarni boshqa cholg‘ularda ijro etib bo‘lmaydi, chunki ular faqat chanqovuzgagina xos bo‘lgan kuylardir. Chanqovuz kuylari o‘z tuzilishi va ayrim tasviriy xususiyati bilan sibizg‘a, g‘ajir nay ohanglarini eslatadi. Shuni ta’kidlash joizki, chanqovuz Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarining musiqa cholg‘ulari orasida alohida o‘ringa ega.[2]



15-rasm

Demak puflab chalinadigan har bir cholg‘u asbobining o‘rni, ishlatilishi va repertuarining boyligi birinchi navbatda uning ijrodagi imkoniyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ayrim cholg‘ur faqat ma’lum janrlar doirasida cheklangan bo‘ladi yoki ularning ijrodagi yetakchilaridan hisoblanadi. XX asrning 1960-yillariga qadar O‘zbekistonning deyarli ko‘p joylarida changqovuz ayollarning eng keng tarqalgan musiqiy cholg‘usi bo’lgan.[3] Changqovuz turkiy qabila xalqlarining barchalarida, shuningdek, slavyanlarda va hatto roman-german xalqlarida ham uchraydi. Qadimda changqovuzlar tuya suyagidan ham yasalgan, degan ma’lumotlar bor. Hozirda changqovuzning eng mohir erkak ijrochisi Surxondaryolik Juma Abrayqulov hisoblanadi.

[2] Sanoqul Do‘stov. “Cholg’u ijrochiligi vaansambli” o‘quv qo‘llanma Durdona nashriyoti, 2019. - 260 b. 37-bet.
[3]Karimov Olimxo‘ja Islomovich.“Cholg’u ijrochiligi vaansambli” o‘quv qo‘llanma Durdona nashriyoti, 2019. - 196 b. 20-bet.

## MEZROBLI CHOLG‘ULAR

**QASHQAR** rubobi 1937 - yillardan boshlab qo‘llanila boshlagan. Bu borada rubob musiqa cholg‘usining eng yetuk mutrib sozandasi O‘zbekiston xalq artisti ustoz Muhammadjon Mirzayev bilan suhbat shuni ko‘rsatadiki, Toshkentda dastlab bir uyg‘ur sozandasi bu cholg‘uni ijro etib yurgan. Muhammadjon Mirzayev bu rubobni ko‘rib undan nusxa olish maqsadida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan San’at Arbobi xalq ustasi Usto Usmon Zufarov ustaxonasiga boradi. Aynan shu 1937 - yilda O‘zbekistonning Moskva shahrida bo‘ladigan birinchi dekadasiga tayyorgarlik ko‘rilib, turli xil musiqa cholg‘ulari ham tayyorlanayotgan edi. Shu yili Usto Usmon Muhammadjon Mirzayevga o‘zi olib kelgan Uyg‘ur rubobidan aynan nusxa olib bir necha rubob tayyorlaydi va birinchi tayyorlangan Qoshg‘ar rubobi Muhammadjon Mirzayevga taqdim etiladi. Ma’lumki bu turdagi rubob aynan tanbur singari bo‘lib, bunda pardalar bog‘langan, sozlanishi ham aynan tanbur singari bo‘lgan. Faqat bu yangi tayyorlangan rubobda bog‘langan pardalar o‘rniga, po‘latdan yasalgan pardalar o‘rnatiladi. Sozlanishi avalgidek kvinta ya’ni **lya**, **re**, **lya** ovozlariga. Bu turdagi sozlanish rubobning an’anaviy sozlanishi, keyingi yillarda qayta tayyorlangan rubobning sozlanishi **lya**, **mi**, **lya** kvarta ovozlariga, lekin to hozirgi kungacha Muhammadjon Mirzayev va ustozning farzandlari Shavkat Mirzayev an’anaviy sozlarda behisob musiqiy asarlarni bastalab, cho‘lg‘u va ashula yo‘li uslubida hamda jo‘rvozlik ijro yo‘lida ikki rubob jo‘rligida ijro etib kelishmoqda. 1937 - yilda yana ushbu rubobdan nusxalar olinib, rubobda Abbos Bahromov, Bo‘riboy Mirzaahmedov, Ergash Shukurillayevlar ham ushbu sozda chalish sirlarini o‘rgana boshlaganlar. (16-rasm)



**16-rasm**

**Qashqar rubobining** asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg‘ur avtonom okrugi) ning Qashqar degan joy nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zbek milliy cholg‘ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan

cholg‘u hisoblanadi. Musiqani endigina o‘zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig‘i ana shu cholg‘udan foydalanishi ma’lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo‘lib, nisbatan tez o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan cholg‘ular qatoriga kiradi. Bu cholg‘u yakka holda va cholg‘u jamoalari tarkibida ishlatilishi mumkin. *Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Shavkat Mirzayev, Qobiljon Usmonov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabiy kabi sozandalar ushbu cholg‘u dovrug‘ini yoyishda ulkan xizmat ko‘rsatganlardan hisoblanadi.*[4]

## Qashqar rubobining sozlanishi

Qashqar rubobning birinchi juft tori birinchi oktavaning **“Lya”** tovushiga, ikkinchi juft tori birinchi oktavaning **“Mi”** tovushiga, uchinchi tori esa kichik oktavaning **“Si”** tovushiga sozlanadi. Bundan tashqari, qanday asar ijro etilishiga qarab, uchinchi tor kichik oktavaning **“Lya”** hamda ikkinchi tor birinchi oktavaning **“Re”** tovushlariga ham sozlanishi mumkin.




**Tvushlarning nota chiziqlarida joylanishi**




**Shu tovushlarning rubob pardalariga joylanishi**




[4]S.B.Saidiy - Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg’ular. (O’zbek va tojik musiqa an’analari misolida).”Musiqa” nashriyoti;Toshkent-2008.

**Diapazoni**



Qashqar rubobi uchun yozilgan musiqiy asarlar skripka kalitida yoziladi, yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi.




**AFG‘ON rubobi** - juda qadimiy musiqa asbobidir.Bu cholg‘uning kelib chiqish tarixi to‘g‘risida turli manbaalarda turlicha ma’lumotlar keltirilgan.Jumladan A1 - Forobiy (X - asr) o‘z davrining musiqa asboblarini tavsiflar ekan, rubobda bir - biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligi uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali (XVII asr) “Musiqa haqida risola”asarida musiqa asboblarining tuzilishini bayon qilar ekan, “Rubob torli musiqa asbobi. O‘rta Osiyoda Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200 - 1220 yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo‘q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor bo‘lib, ulardan to‘rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi”, deb yozadi.N.N Mironov tomonidan afg‘on rubobining hindistonda uchrashi, Oashqarda uni rabob deb atalishi vozilgan, Professor Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi tarixi” asarida bu cholg‘uning Xorazm amiri Muhammad Xorazmshoh davrida Balx shahrida shaxsi nomalum kimsa tomonidan yasalgani haqida rivoyatni keltiradi.

Afg‘on rubobi qadim zamonlardan o‘zbek xalqi orasida ayniasa, Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan. Uning korpusi ponasimon shaklda katta va chuqur bo‘ib, yon tomonlarida o‘yiqlari bor. Dastasi qashqar rubobiga nisbatan ancha kalta (8 - 10 sm) bo‘lib, uch tomoni bir oz orqaga qayrilgan. Korpusi bilan dastasi yaxlit yog‘ochdan (ko‘pincha tutdan) yasaladi. Dastasi pardalarga bo‘lingan bo‘lib, uning pastki qismi kengaya borib qopqoqqa ulanib ketadi va korpusning ustini o‘yiqlarga qadar yopadi. Korpusning qolgan qismi (o‘yiqlardan keyingi

qismi)ga teri qoplanadi. Asbobning umumiy uzunligi 70 - 80 santimetrni tashkil qiladi.Uning taxta qoplamasiga 6 -7 ta qo‘shimcha xasparda o‘rnatiladi. Afg‘on rubobi kvartaga sozlanib, ohangdor tovush hosil qiluvchi beshta asosiy tor va quloqlariga tortilib sekundaga sozlanadigan aks-sado beruvchi 10-11 ta yordamchi torlari bo‘lib, asosiy torlar ichakdan, yordamchilari esa metal (po‘lat) dan tayyorlanadi. Diapazoni bir oktavadan ortiq diatonik tovushqatorga ega. (17-rasm)



17-rasm

Afg‘on rubobi boshqa ko‘pgina o‘zbek xalq cholg‘u asboblari singari 30 - yillarning oxiri, 40-yillarning boshlarida A.I. Petrosyans tomonidan rekonstruksiya qilindi, ya’ni takomillashtirildi. Korpusi ixchamlashtirilgan, dastasi uzun temperatsiyalangan to‘la xromatik tovushqatorga ega. Pardalar esa ebonit qalamchalardan yasab o‘matildi.Asbobning takomillashtirilishi ijro texnika imkoniyatlarini yaxshilashga imkon berdi. Diapazoni kengaytirildi. (18-rasm)



18-rasm

**yozilishi** **eshitilishi**




Ovoz hajmi (diapazoni) **si** kichik oktavadan **mi** uchinchi oktavagacha.

**yozilishi** **eshitilishi**



To‘rtta bog‘langan parda va yopishtirilgan 6- 7 ta parda o‘miga 19 ta parda o‘rnatildi. Tovushqatorga temperatsiya va xromatizatsiya joriy etildi. Uning beshta tori bo‘lib, to‘rttasi ikkitadan qo‘shaloq va beshinchisi yakka holda o‘rnatildi. Takomillishtirilgan afg‘on rubobida hamma torlar ichakdan yoki kapron tolasidan tayyorlanadi va kvarta oraligida sozlanadi.[5] Diapazoni kichik oktava **lya** tovushidan uchinchi oktava **mi - fa** tovushigacha. Afg‘on rubobining mashhur ijrochilari: Taur Jumayev, Ergash Shukrullayev, Savinov, G‘ulomqodir Ergashev, Tohir Yo‘ldoshev va boshqalar.

Ruboblar turiga kiruvchi sozlardan afg‘on rubobi bo‘yi, shakli jihatdan qashqar rubobiga o‘xshashdir.Musiqa tili bilan aytganda, zil (ingichka), bam (yo‘g‘on) tovushlari mavjud. Ya’ni afg‘on rubobi bam toifasiga ham kiradi. U ohangraboligi, tovushining o‘ziga xosligi bilan shinavandani o‘ziga jalb qiladi. Afg‘on rubobining tashqi ko‘rinishi xuddi suv kemasiga o‘xshaydi. Afg‘on rubobining torlari qoramol ichagi va po‘lat simlardan iborat. Asosiy ijro etiladigan torlaridan tashqari, yordamchi aks sado beruvchi (rezonans) torlar ham o‘rnatilishi mumkin.Sozanda afg‘on rubobini bag‘riga olib, tizzasiga qo‘yib, mediator bilan chertadi. Rivoyatlarga ko‘ra, afg‘on rubobini bir zamonlar faqat ayollar ijro etishgan va qo‘llaridan qo‘ymay, bir paytning o‘zida raqsga ham tushib ketar ekanlar.

**PRIMA** rubobi XX asrning birinchi yarmidan boshlab o‘zbek musiqa ijrochiligi taraqqiyotida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shulardan biri 1943-yilda San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qoshida o‘zbek xalq cholg‘u sozlarini takomillashtirish uchun mo‘ljallangan tajriba laboratoriyasining ochilishi bo‘ldi. Unga 1943–1948-yillarda I.Akbarov (1909–2002) direktor, V.Uspenskiy (1879–1949) mudir va A.Petrosyans (1910–1979) ustaxona mudiri etib tayinlandi[6]. Natijada, professor A.I.Petrosyans rahbarligida ko‘pgina cholg‘ular takomillashtirilib qayta ishlandi, cholg‘ular oilasi, ularning yangi turlari, shu jumladan ruboblar oilasi ham tajriba sifatida yaratildi. (19-rasm)

[5]S.M. TaxalovningAfg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi
[6] A.Toshmatova. Musiqiy cholg‘ular muzeyi katalogi. “Fan”. T., 2006.



19-rasm

Ya’ni rubob cholg‘usi asosida ushbu cholg‘uning prima rubobi, metsso soprano va alt turlari paydo bo‘ldi. Sozgar usta S.E.Didenko (1911–1988) tomonidan ishlangan prima rubobi cholg‘usi yuqori registrdagi tovushlarga, katta tovush diapazoniga va keng ijrochilik imkoniyatlariga ega bo‘lib, mizrob bilan chalinadigan sozlar sirasiga kiradi. Prima rubobining torlari to‘rttaligi, ularning barchasi metalldan ishlanganligi cholg‘uda o‘zbek xalq musiqasi namunalari, O‘zbekiston kompozitorlari asarlari bilan birga jahon kompozitorlik ijodi namunalarini ham ijro etish imkonini beradi. An’anaviy qashqar ruboblari kosasi tut daraxti yog‘ochidan o‘yib ishlangan bo‘lsa, yangi yaratilgan ruboblar kosasi yog‘och qovurg‘achalarni birlashtirib yasala boshlandi. Prima rubobining kosasi ham yog‘och plastinkalardan, dastasi esa o‘rik daraxti yog‘ochidan ishlanadi.




Rubob prima katta imkoniyatga ega bo‘lib, butun diapazonida bir xil tovush chiqaradi. Rubob prima orkestrning etakchi cholg‘u asboblaridan biri hisoblanadi. Bu guruh orkestrdaasosiy mavzuni, jo‘rnavozlik, virtuoz, kuychang misralarini ham chalish imkoniyatlariga ega. Prima rubobda ***pp***, ***ff*** rez (tremolo), stakkato, pissikato, detashe chalishi mumkin. Nota yozuvidagi tovushni beradi.

Foydalaniladigan nota oralig‘i.



Rubob prima + qashqar rubob

Rubob prima + nay

Rubob prima + chang

Rubob prima + g‘ijjak va boshqa asboblar bilan ham jozibali, kuchli va jarangdor tovush hosil qiladi.

| Cholg'uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo'yicha | Eshitilishi bo'yicha | |
| Rubob-prima | 1-tor«Mi» ikkinchi oktava;<br>2-tor «Lya» birinchi oktava;<br>3-tor «Re» birinchi oktava;<br>4-tor «Sol» kichik oktava. | «Sol» kichik oktavadan – «Mi» 4-oktavagacha | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |

**METSSOSOPRANO rubobi** yangi yaratilgan torli tirnama cholg'ular oilasiga mansub soz bo'lib, o'rta registr ovoziga ega. U tuzilishi jahatidan qashqar rubobiga nisbatan kichik hajmda yasalgan. Uning po'latdan yasalgan beshta tori bo'lib, birinchi ikkita juft tori **lya** va ikkinchi juft tori **mi** birinchi oktavaning, uchinchi birta tori esa **si** kichik oktava tovushlariga sozlanadi. Torlar oralig'i sof kvarta intervaliga teng. (20-rasm)



20-rasm

Ovoz hajmi (diapazoni) **si** kichik oktavadan **si** uchinchi oktavagacha.



Lekin uning ovozi **si** kichik oktavadan **mi** ikkinchi oktavagacha bo'lgan oraliqda yaxshi jaranglaydi.



Chalish usullari qashqar rubobi sozi singaridir. Uning ovozi tiniq, yumshoq, jarangdor. U yakka ijroda hamda ansambl tarkibida ishlatiladi.

**ALT rubobi** ham yangidan yasalgan bo'lib, o'rta registr ovoziga ega bo'lgan sozdir. U ham qashqar rubobi singari beshta tordan iborat. Birinchi va ikkinchi torlari juft, uchinchi tori esa yakka. Torlarining barchasi po'lotdan yasalgan. Birinchi juft tor **re** birinchi oktavaga, ikkinchi juft tor **lya** va uchinchi yakka tor esa **mi** kichik oktava tovushlariga sozlanadi. (21-rasm)



21-rasm




Torlar oralig‘i sof kvarta intervaliga teng. Notalari skripka kalitida yoziladi. Ovoz kengligi **mi** kichik oktavadan **re** uchinchi oktavagacha.



Qashqar rubobidagi barcha chalish imkoniyat va qulayliklari, metodik usullar ushbu rubobga ham taalluqlidir. Alt rubobini turli ansambl va orkestrlarda chalishdan tashqari, undan yakka ijro sifatida ham foydalanish mumkin. Chunki unda bunday ijro uchun zarur bo‘lgan barcha imkoniyatlar mavjud. U ham mizrob bilan chalinadi.

**TANBUR** ham noxunli mezrobli cholg‘ular turkumiga kiradi. U ko‘rsatkich barmoqqa kiyiladigan metal aralashmasidan yasalgan maxsus moslama, ya’ni noxun bilan chalinadi. Tanbur asosan tut, o‘rik, yong‘oqqa o‘xshagan qattiq daraxtlar g‘olasidannoksimon shaklda qilib yasaladi. Kosaning ustki qismi tut daraxtidan yassi qilib yasalgan qopqoq bilan qoplanadi. Dastasi birmuncha uzun, ingichka va pardalarga bo‘lingan. Tanburning pardalari boshqa cholg‘ular pardalariga nisbatan qalinroq va balandroq qilib bogTanadi. Bu bog‘lanish tanbur simlarini ezib kerakli tovush hosil qilish uchun mo‘ljallangan. Tanbur ham ud soziga o‘xshab juda qadimiydir. Mashhur musiqashunos olim Forobiyning fikricha, qadimda tanburlar asosan ikki simli bo‘lgan va ayrim holatlarda uch simli tanburlar ishlatilgan.

Bu tanburlar ko‘rinishi jihatidan bir - biridan farq qilgan.[7] Shu o‘rinda mashhur olim Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli

[7]T.S. Vizgo. “Muzikalnive instrumenti Srednev Azii”. 78 -79 betlar

kitobidagi tanbur haqidagi fikrlarni aynan keltirishni lozim deb topdik. “Burungi musiqiy kitoblarimiz tanbur so‘zini tunbura shaklidayozadirlar - da, aslida yunoncha so‘z ekanini so‘zlaydilar.Cholg‘uning chindan-da, yunondan kelib - kelmaganini biz tomondan tekshirish mumkin bo‘lmadi. Biroq bu cholg‘uning sharqda juda eski bir narsa ekani ma’lumdir**.**Hijriy o‘ninchi asrda o‘tkan Hofiz Darvesh Aliy tomonidan tanburning burun ikki torli bo‘lgani, so‘ngra Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqiyshunosning ungabir tor ortdirg‘ani to‘g‘risida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrlarimizning kuchini ortdirg‘on bo‘ladir”.

Tanburning yaratilishi va uning taraqqiyot jarayonini dastlab Movarounnahr hamda Xurosonning musiqa bilimdonlari o‘z asarlarida ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etganlar. Masalan, musiqashunoslar Abu Nasr Forobiy, Kotibiy Xorazmiy, Ibn Sino, Ibn Zayla Isfaxoniy va boshqalar o‘z asarlarining ayrim boblari hamda fasllarida tanburga oid muhim izohlami berganlar. Tanbur atamasining ma’nosi turli yozma asarlarda turlicha izohlangan. Jumladan Darveshali Changiy Buxoriy (XII asr Tuhfat - us - surur) ning ta’kidlashicha tanbur tanbur yunoncha so‘z bo‘lib, “**tan**” - yurak, “**bur**” - tirnash ma’nosini anglatar ekan.

Tanbur uch xil sozlanadi:

-Birinchisi **“Rost”** mizrobi.

-Ikkinchisi **“Navo”**mizrobi, Navo maqomiga oid kuylar shu sozda chalinadi.

-Uchinchisi **“Segoh”**mizrobi. Segoh, Iroq, Buzruk, Dugoh maqomlariga oid kuylar shu sozda chalinadi. (22-rasm)



**22-rasm**

**Tanbur** - O‘zbekiston, Tojikiston,janubiy Xitoyning Sinszyan viloyatida (bu yerda tanbur deb yuritiladi) keng tarqalgan torli tirnama qadimiy cholg‘u asbob. Tanburning kosasi nok shaklida o‘yilib yoki bir necha qovurg‘alardan yopishtirilib,

bunga uzun dasta ulanadi; umumiy uzunligi 1100-1300 mm. Dastaga ichakdan qilingan parda bog‘lanadi. Baland tovushlar olish uchun ichak pardalardan tashqari, qopqog‘iga kichik va kalta cho‘plar yopishtiriladi (buni “has parda” deb ataladi). Pardalar soni 18-20 tacha. Tovushqatori diatonik bo‘lib, to‘rtta (ilgarilari uchta) sim tor taqiladi. Bu torlardan 1, 2 va 4-si bir ovozli (unison) bo‘lib, 3-tor kvarta, kvinta ba’zan sekunda past bo‘ladi. Notalar bas va skripka kalitlarida yoziladi. Tanburning 1, 2 va 4-torlari katta oktavadagi***sol*** ga,3-tor esakatta oktavadagi ***re*** yoki ***do*** ga**,** yoki ***fa*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi katta oktavadagi ***sol*** danbirinchi oktavadagi ***sol*** gaqadar.

Hozirgi tanburlar to‘rt torli bo‘lib, torlari **mis** va **latun** aralashmasidan tayyorlanadi. Dastaga 1 6 - 1 9 tagacha yo‘g‘on qilib ichak pardalar bog‘lanadi. Bu pardalarni ijro etiladigan asarning ladiga qarab pastga yoki yuqoriga surish mumkin. Tanbur pardalari bir necha qavat ichaklardan tayyorlanib, qalinligi sababli dastadan ancha ko‘tarilib turadi. Xuddi mana shuning o‘zi tanburning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.Sozanda pardaning balandligi hisobiga torni ezish yo‘li bilan turli tovushlar hosil qila oladi. Bog‘lama pardalardan tashqari tanburning qopqoq qismiga yana to‘rtta yordamchi yog‘och parda, ya’ni xasparda o‘rnatiladi. Bu esa tanburda ijro etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tanburning ommalashuvida Ma’rufjon Toshpo‘latov, Fazliddin Shahobov, Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev, Matyusuf Xarratov, Rizqi Rajabiy, Turg‘un Alimatov, Sultonxon Hakimov, Yoqub Davidov, Shobarot Tanburiy, Otavali Nuriddinov, Abdulla Umarov va boshqa sozandalarning xizmatlari benihoyadir.

**UD** ijtimoiy hayot o‘z taraqqiyoti mobaynida aholining tabaqalarga bo‘linish jarayonini boshidan o‘tagani kabi musiqa san’atida ham ana shunday jarayon davom etmoqda. Uzoq tarixiy taraqqiyot mobaynida musiqiy janrlar, cholg‘ularning bir qancha turlari kashf etildi.Ana shunday cholg‘u turlaridan biri uddir.O‘tmish olimlari ud cholg‘ular ichida mukammallik darajasiga yetkazilganligini ko‘rsatibo‘tganlar. Ud sozi Osiyo xalqlarining milliy cholg‘ulari qatoridan munosib joy olgan, garchand uni forslar “Borbad”, xitoyliklar “Pipa”,

arab xalqlari “**ud**” va ko‘pchilikOvropa xalqlari “Lyutnya” kabi atamalarda atagan bo‘lsalar ham uning asosi bir, ya’ni ud (udsimon) dir. Ud arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘oviy ma’nosi turlichadir. (23-rasm)



23-rasm

U birinchidan yog‘ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan ud iborasi bayram, to‘y tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan “iyd” iborasining ma’lum formasidir.Bu o‘rinda xushchaqchaqlik kayfiyati bag‘ishlovchi soz ma’nosida ham kelishimumkin.[8] Udning mukammal soz sifatida namoyon bo‘lishida uning uch xususiyati alohida ajralib turadi:

**-tuzilishi** (shakli, torlar miqdari, joylashishi, sozlanishi); **-imkoniyati;**
**-ommaviyligi.**

Bu xususiyatlari xalq orasida mohir sozandalar yetishib chiqishida, musiqa ijodiyotida ustozona musiqa janrini vujudga kelishida muhim o‘rin egallaydi. Bu o‘rinda IV asr oxiri V asr boshlarida yashab ijod etgan zabardast “afsonaviy” sozanda, o‘z ijodida lahn, parda, xusravoniylar kabi qadimiy musiqiy janrlarda namunalar yaratgan Borbad faoliyatini misol qilish mumkin. Musiqaning barcha ilmlar qatorida alohida fan' sifatida shakllanishida o‘tmishda yashab ijod etgan Al Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Al Husayniy, Ash Sheroziy, Kavkabiy kabi allomalaming ilmiy - nazariy tadqiqotlarida ud asosiy cholg‘u sifatida xizmat qilgani alohida ta’kidlanadi. Eroniy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar orasida Borbad qadimdan ma’lum va mashhur bo‘lsa, u iroqlik arab xalqlariga esa VIII asrda ma’lum bo‘ldi va arab musiqasini borbadda - udda birinchi bor Ibn Surayi ijro etdi. Ibn Sino davrigacha (X - asrning ikkinchi yarmi XI - asr boshi) “Borbad” termini ud so‘zining sinonimi sifatida ishlatildi. Buning tasdig‘i sifatida A1 - Xorazmiyning (X -asr) quyidagi jumlasini keltirish mumkin. **“Borbad - bu ud. Borbad so‘zi o‘rdakning ko‘kragi ma’nosini beradi ya’ni bar - ko‘krak, bat - o‘rdak”** Mahmud Qoshg‘ariyning (XI - asr) “Devonu lug‘atit turk” asarida ham

8 I. Raiabov “Maqomlar masalasiga doir” Toshkent - 1963 vil 17 bet

Borbad so‘zi o‘rdak ko‘kragi degan ma’noni anglatishi qayd etiladi. A1 - Forobiyning “Arab musiqasi, uning qonunivati va tarixi” asarida **“Ud sozi intervallarni nazariy jihatdan hisoblashda xizmat qilgan”** degan jumla bor. Demak, ud sozining mukammal soz sifatida gavdalanganligini Sharq olimlari ham isbotlaganlar. O‘rta asr fanining allomasi ash - Sheroziy hamda Jomiyning musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan asarlarida ko‘rsatilishicha, ud al - Forobiy zamonasi (X-asr) gacha to‘rt torli musiqa asboblaridan bo‘lgan va torlar maxsus nomlar bilan atalgan. Eng past tovush beradigan tor - **bamm** (eng past), ikkinchi tor **maslas** (arabcha uch barobar baland), **Masna** (arabcha ikki barobar baland), to‘rtinchi tor esa **zir** (baland tovush beradigan) nomlari bilan ifodalangan.A1 Forobiy o‘z zamonasi talablariga, ya’ni musiqa amaliyotidagi ehtiyojlarga asoslanib, ud torlariga **hodd** (eng baland tovushli) deb atalgan tomi qo‘shgan va udning tovush diapazonini diatonik tovushqator nuqtai nazaridan qariyb 4-5 pog‘onaga kengaytirgan. Musiqaga oid nazariy risolalardan ma’lum bo‘lishicha, besh torli ud qariyb XVI - asrgacha ishlatilib kelingan.[9]

## DUTOR GURUHIDAGI SOZLAR TASNIFI

**DUTOR** - O‘zbekistonda keng tarqalgan cholg‘ulardan biri. Dutorda ikkita ichak yoki ipakdan qilingan ip bo‘lib, bir yarim oktava diapazonga egadir. Dutor asosan noksimon shaklda yasaladi. Tasviriy san’at yodgorliklari va yozma tarixiy manbaalar o‘zbek xalq cholg‘ularini, jumladan dutomi qadimdan ijro etilibkelinishiga guvohlik beradi. Abu Nasr Muhammad Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy va boshqa olimlar o‘z asarlarida dutor haqida ancha to‘liq ma’lumotlami berib o‘tganlar.

Dutor ikki qismdan (dasta va kosa) iborat bo‘lib, bu qismlami birlashtiruvchi qismi “bo‘g‘iz” deb ataladi. Dutor kosasi o‘yma yoki qobirg‘achalaming birlashtirilishidan yasalishi mumkin.o‘yma dutor Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo‘llanilib bir bo‘lak tut yog‘ochidan o‘yib ishlanadi. Qobirg‘ali dutor ham tut yog‘ochidan ishlanib, 8-10 bo‘lak yupqa taxtacha egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog‘ochidan

[9] I.Raiabov“Maqomlar masalasiga doir” Toshkent- 1963 vil 19-bet

tayyorlanadi. Odatda, dutor yasaladigan tut yog‘ochi soyada quritiladi. (24-rasm)



24-rasm

Dutor O‘zbekistonda juda keng ommaviylashgan cholg‘u asboblaridan biridir. O‘zbekxalqi bu cholg‘uni sevib chaladi. O‘zbek xalq kuylarini mohirona ijro etish imkoniyatibor asboblardan biri hisoblanadi. Dutorning bir nechta turlari bor (prima, sekunda, alt,tenor, bas va kontrabas).










| Cholg‘uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo‘yicha | Eshitilishi bo‘yicha | |
| Dutor prima | 1-tor «Lya» 1 oktava<br>2-tor «Mi» 1 oktava | «mi» 1 oktava<br>«lya» 3 oktava | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |
| Dutor-sekunda | 1-tor «Re» 1 oktava<br>2-tor «Lya» kichik oktava | «lya» kichik oktava<br>«re» 3 oktava | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |
| Dutor alt | 1-tor «lya» 1 oktava<br>2-tor «mi» 1 oktava | «mi» kichik oktavadan<br>«mi» 3 oktava | «Mi» kichik oktava<br>«Do» 3 oktava | Yozilgandan 1 oktava past eshitiladi |

Dutor alt yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Dutor alt, dutor prima orkestrjo‘rligida yirik asarlar (solo) chalishi mumkin. Dutor alt mungli, mayin va o‘ziningyoqimli tovushi bilan boshqa asboblardan ajralib turadi. Tovush jihatidan ancha past,texnik imkoniyati ham kichkina, lekin oxirgi yillar davomida tajribali mohir ijrochilarbu asbob imkoniyatlarining barcha qirralarini ochib berishdi.Dutor prima asbobida rus,chet el akademik musiqa asarlarining virtuoz qismlarini yorqin ijro etishmoqda.Orkestrdadutor alt, dutor primaning albatta o‘z o‘rni bor. Dutor altda o‘ziga xos har xil shtrixlarda(terma zarb, chertma zarb, teskari zarb, bilak zarb, pissikato) kuy chalinadi.Dutorchalish usullari boyligi, turli-tumanligi tufayli orkestrda uning o‘rni muhimdir. Dutoryakkasoz ijro etayotgan cholg‘uga jo‘rnavoz bo‘lib, o‘zining yoqimli va mayin tovushibilan moslashadi. Tovush jarangini, garmoniyasini boyitib, pedal tovushlarini ushlab,kuy mohiyatini ko‘tarib turadi.

Dutorda bir yo‘la ikki tovush sadolanadi.Tersiya, kvarta, kvinta, bitta ochiq tordaesa undan katta intervallar chalish mumkin.Turli tembrli asboblar kuyni bir yo‘launison, akkord, oktava ijro etishda uyg‘unlik, shirali, zich sadolanishni vujudga keltiradi.Bu kompozitor va cholg‘ulashtiruvchining mohirligini ko‘rsatadi.

Cholg‘ulashtirish jarayonida:

Dutor + rubob prima

Dutor + qashqar rubob

Dutor + afg‘on rubob + tanbur

Dutor + dutor bas + g‘ijjak bas + g‘ijjak kontrabas variantlari chiroyli birlikni tashkilqiladi.Yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Orkestrda dutor asbobi jo‘rnavozlikyo‘nalishida asosiy guruh hisoblanadi.

Dutor dastasi olma yog‘ochidan qilinadi va unga 13-14 ta ichak parda bog‘lanadi.Cholg‘uning umumiy uzunligi 1200-1300 millimetmi tashkil qiladi.Ayrim joylarda 750 - 800 millimetrli dutorlar ham uchraydi. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta (o‘rta parda sozi), kvinta (bosh parda sozi), unison (qo‘sh parda sozi) va oktava oraliqlariga sozlanadi. Bu sozlardan ko‘proq qo‘llaniladigani

"Munojot" (kvinta) va "Tanavor" (kvarta) sozlaridair. Bu sozlar aniq bir balandlikda bo'lmay, ijrochi va ashulachi xohishiga binoan turlicha balandlikda sozlanishi mumkin.

Dutor ansamblda va yakka soz sifatida qo'llaniladi. Ovozi past, mayin bo'lgani sababli ko'proq yakkanavoz tarzida qo'llaniladi. Shuning uchun ham maxsus Rohat, To'rg'ay, Dutor bayoti kabi dutor kuylari mavjud.

**PRIMA dutori** ikki tordan iborat, eng qisqa dasta (grif)ga ega. U yuqori oktavadagi tovushlarni ijro qilishga mo'ljallangan. Ushbu cholg'u dutorlar ichida eng baland va jarangdor ovozga ega. Uning birinchi tori **lya** va ikkinchi tori **mi** ham ikkinchi oktava tovushlariga sozlanadi. Torlari kaprondan tortilgan. Notalari skripka kalitida yoziladi, qanday yozilsa shunday ovoz beradi. Prima dutorining torlari orasi sof kvarta intervaliga sozlanadi. (25-rasm)



25-rasm



Ovoz kengligi birinchi oktavaning **mi** tovushidan, uchinchi oktavaning **lya** tovushigacha. Ammo uning jarangdorligi uchinchi oktavaning ***fa#*** gacha bo'lgan oraliqda yaxshi ovoz beradi.

**yozilishi** **eshitilishi**



Prima dutorida turli xarakterdagi asarlarni, shuningdek tersiya, kvarta, kvinta intervallarini ham erkin ijro etish mumkin. U orkestrda yakka soz sifatida eng muhim partiyalarini chalishda hamda cholg'ularga garmonik va ritmik hamohang bo'lib musiqa asarlarining badiiy darajasini o'stirishda ishlatiladi.

**SEKUNDA dutori** yangidan ixtiro qilingan soz bo‘lib, o‘rta registr tovushqatori balandligiga ega. Notalari skripka kalitida yoziladi. Uning ikkita tori ham ichak (kapron) dan tortilgan bo‘lib, birinchi tori **re** birinchi oktava, ikkinchi tori esa **lya** kichik oktava tovushlariga sozlanadi. Torlar orasi sof kvarta intervaliga teng. (26-rasm)



26-rasm



Ovozning kengligi **lya** kichik oktavadan **re** uchinchi oktavagacha.



U orkestrda cholg‘u asboblariga jo‘r bo‘lish uchun hamda bolalar musiqa maktabi o‘quvchilarini o‘rgatishda ishlatiladi.

**TENOR dutori** qayta ta’mirlangan ijro uchun qulay imkoniyatlar yaratib, xramatik yarim tonlarga bo‘lingan, xalq orasida ishlatib kelinayotgan, past va o‘rta registrdagi ovozga ega bo‘lgan ikki torli cholg‘u asbobidir. Uning birinchi tori **lya** kichik, ikkinchi tori esa **re** birinchi oktava tovushlariga sozlanadi. Torlar orasi sof kvarta intervaliga teng. Notalari skripka kalitida yoziladi va bir oktava past sadolanadi. (27-rasm)



27-rasm

**yozilishi** **eshitilishi**



**yozilishi** **eshitilishi**



Tenor dutorida musiqa asarlarini jozibali va rang-barang ijro etish uchun barcha zarb jumladan bilak zarb, terma zarb, aylanma zarb, teskari zarb, rez (tremolo) kabi usullarni mohirona ijro etish mumkin.

**BAS dutori** yangidan yasalgan soz bo‘lib, past registrdagi tovushlarni ijro etishda moslashtirilgan. Uning to‘rtta tori bo‘lib, birinchi tori **lya** bilan ikkinchi tori **re** kichik oktavaga, uchinchi tori **sol** hamda to‘rtinchi tori **do** esa katta oktavadagi tovushlarga sozlanadi. Torlarining birinchisi **lya** ichak yoki kaprondan, qolgan uchtasi esa o‘rama po‘lat simdan ishlangan. Torlarining orasi sof kvinta intervaliga teng. Notalari bas kalitida yoziladi, qanday yozilsa shunday ovoz beradi. (28-rasm)




Ovoz kengligi (diapazoni) katta oktavadagi **do** notasidan ikkinchi oktavadagi **lya** tovushigacha.



Bas dutorida barcha shtrix (torli cholg‘u asboblarida mizrob bilan chalish usuli) ni chalish mumkin. U orkestrda yakka tartibda kuy chalish hamda boshqa cholg‘ularga jo‘r bo‘lish uchun ishlatiladi.



**28-rasm**

Dutor bas mizrobli cholg‘ular guruhiga kiradi.




Mizrob yordamida pastga va yuqoriga chalish asosiy chalish usulidir. Dutor bas uchun asarlar, orkestr partiyalari bas kalitida yoziladi. Notalar yozuvidagi tovushni beradi. Orkestrda dutor bas asosan orkestr asosi, ya’ni, tayanchi hisoblanadi. Eng pastki registr notalarini chaladi. Dutor bas, g‘ijjak bas, g‘ijjak kontrabas asboblari birgalikda orkestrni ushlab turadigan guruh hisoblanadi. Shirali, zich, juda to‘liq ohang beradi. Dutor bas faqatgina jo‘rnavoz yo‘nalishini emas, balki asar mohiyatiga qarab asosiy (solo) partiyani ham chalishi mumkin. O‘zbek mumtoz musiqasi, O‘zbek xalq va akademik musiqasini bezatuvchi tovushlarni ham chalish imkoniyatiga egadir.

| Cholg‘uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo‘yicha | Eshitilishi bo‘yicha | |
| Dutor bas | 1-tor «Lya» kichik oktava;<br>2-tor «Re» kichik oktava;<br>3-tor «Sol» katta oktava;<br>4-tor «Do» katta oktava. | «Do» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |

**KONTRABAS dutori** qayta ishlangan yangi cholg‘u asbobi bo‘lib, orkestrda eng past tovushlarni ijro etish uchun qo‘llaniladi. Uning to‘rtta o‘rama po‘lat tori bo‘lib, birinchi tori **sol** bilan, ikkinchi tori **re** kichik oktavaga, uchinchi tori **lya** hamda to‘rtinchi tori **mi** esa katta oktavadagi tovushlarga sozlanadi. Notalari bas kalitida yozilib, bir oktava past ovoz beradi. Torlarning orasi sof kvarta intervaliga teng. (29-rasm)



29-rasm




Dutor kontrabas yozilganidan bir oktava past eshitiladi.

| Cholg‘uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo‘yicha | Eshitilishi bo‘yicha | |
| Dutor kontrabas | 1-tor «Sol» kichik oktava; 2-tor «Re» kichik oktava; 3-tor «Lya» katta oktava; 4-tor«Mi» katta oktava. | «Mi» katta oktavadan – «Sol» 1-oktavagacha | «Mi» kontr oktavadan – «Sol» kichik oktavagacha | Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi |

U maxsus qattiq charmdan yasalgan mizrob bilan tik turgan holda chalinadi. Shunday qilib barcha dutorlar oilasiga mansub cholg‘ular o‘zining keng hajmdagi ovozi bilan barcha ansambl va orkestrda o‘zining munosib o‘rniga ega. Bu sozlarda milliy kuylarimiz bilan bir qatorda barcha millat kuylari, shuningdek chet el kompozitorlari tomonidan bastalangan har jihatdan murakkab asarlarni ham mohirona ijro etish mumkin. Bu cholg‘ularning mohir ijrochilari Orif Qosimov, Turg‘un Alimatov, Abdusamad Ilyosov, Boqijon Rahimjonov, Ne’matjon Qulabdulloyev, Mahmud Tojiboyev, Malika Ziyayeva, O‘ktam Ahmedov kabi ustozlar dutorlarning xalqimiz orasida sevib, ardoqlanib kelinishida katta hissa qo‘shdi.

**DO‘MBIRA** torli timama o‘zbek xalq cholg‘u asbobi. Do‘mbirada ichak yoki ipakdan qilingan ikkita tor bo‘lib ko‘proq kvarta oralig‘ida sozlanadi. Do‘mbira tut, yong‘oq, o‘rik daraxtidan o‘yma qilib yasaladi. Dasta qismida tonlami belgilovchi pardalar bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bu asbob cholg‘uchidan katta mahorat talab qiladi. Hozirda Qashqadaryo, Surxandaryo vohalari baxshichilik san’atida qo‘llanilib kelinayotgan do‘mbira ijrochilaridan Musulmonqul Oltiyev, Jo‘ra Doniyorov, Bekqul Alimov, Tursun Obro‘yev, Norcha Baratov, Eson Tilavov va boshqalar noyob cholg‘uni kelajak avlodlarga yetkazishda katta hissa qo‘shmoqdalar. (30-rasm)



30-rasm

## KAMONLI CHOLG‘ULAR GURUHI

**G‘JJAK** - kamonli cholg‘ular turiga kiradi. Ko‘rinishi va chalinishi jihatdan boshqa o‘zbek cholg‘ularidan farq qiladi. G‘ijjak juda qadimiy cholg‘ulardan hisoblanadi. Ayrim manbaalar orqali bizga yetib kelgan malumotlarga qaraganda, XV- asr Samarqand rassomchilik maktabida ishlangan miniatyuralardan bilishimiz mumkinki, dastlabki g‘ijjaklar ikki simli bo‘lgan. Kosasi yarim shar shaklida, dastasi uzun, ot dumi bilan tortilgan kamon bilan chalingan. Dasta yuqoriga tomon yo‘g‘onlashib borgan.Keyinchalik g‘ijjakning ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida uchinchi sim qo‘shilgan.

Bu haqda mashhur oiim Fitrat o‘zining “O‘zbek klassikmusiqasi va uning tarixi” nomli kitobida shunday yozadi: “***Bu ham yoy bilan chalinadir. Chanog Hindiston javzidir. Tut yog‘ochidan, ma‘dandan ham yasalsa bo‘ladi. Sopi 40 - 42 santimetr uzunlikda bir yog‘ochdir. Chanoqdan tuban 20 - 23 santimetr qadar uzunlikda bir temir quyrug‘i bor. Chanog‘i qalin teri bilan qoplanadir. Xarrak butun cholgularga teskari, chanoqning yuqori tomoniga qo‘yiladir, tori uchtadir***”.

Uch torli g‘ijjak diapazoni bir yarim oktavaga yaqin bo‘lgan. (Taxminan birinchi oktava mi bemoldan boshlab). Bobuming ma’lumotlariga qaraganda - g‘ijjakning uchinchi tori XV asrda shuhrat qozongan ijrochi va bastakor Qul Muhammad Udiy tomonidan joriy etilgan. Uch torli g‘ijjaklar ham kvarta oralig[6]iga sozlangan. Bu g‘ijjaklar XX - asr boshlarigacha qo‘llanilib kelingan.Keyinchalik g‘ijjakning diapazonini kengaytirish maqsadida to‘rtinchi, ya’ni sol simi qo‘shildi.Sozlar kvinta oralig‘iga o‘tkazildi. Bu cholg‘u o‘zbeklardan tashqari Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari o‘rtasida ham keng tarqalgan. G‘ijjak asosan tut, yong‘oq va o‘rik daraxtlaridan yasaladi.Baliq terisi bilan qoplanadi. Hozirda yoysimon kamon o‘miga ijro imkoniyatlari kengroq bo‘lgan skripka cholg‘usi smichogi ishlatilmoqda.

**Sozlanishi:** 1-sim ikkinchi oktavaning **mi** tovushiga, 2-sim birinchi oktavaning **lya** tovushiga, 3-sim birinchi oktavaning **re** tovushiga, 4-sim kichik oktavaning sol tovushiga sozlanadi.

Ishlatiladigan diapazoni kichik oktavaning sol tovushidan, to‘rtinchi oktavaning lya tovushigacha. Hozirda xalq ijrochilari ochiq simlami kamroq ishlatish va milliy bezaklaming yaxshi chiqishini ta’minlash maqsadida g‘ijjak chalishda kvarta sozidan kengroq foydalanmoqdalar.

Mashhur g‘ijjakchi sozandalardan To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, G‘ulomjon Hojiqulov, O‘lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Qahramon Kornilov, Tursunboy Jo‘rayev, Ahmadjon Dadayev va boshqalar el orasida mashhur.

O‘zbek xalq cholg‘u orkestrining asosiy guruhlaridan biri kamonli cholg‘ulari guruhidir. Bu guruhga g‘ijjak I,II, g‘ijjak alt, g‘ijjak-qobuz bas va g‘ijjak-qobuz kontrabaslar kiradi. Kamonli cholg‘u guruhidagi asboblarning barchasi sozi, chalinish uslublari, sadolanishi simfonik orkestri kamonli kvintetiga batamom mos keladi. Orkestrda kamonli cholg‘ular guruhi asosiy, yetakchi guruh hisoblanadi. Kamonli asboblarda turli tonlikdagi asarlarni chalish qulay, hamma dinamikani ko‘rsata oladi, unison, oktava, ko‘p ovozli, har xil passaj, virtuoz qismlarni chalish imkoniyatiga egadir. (31-rasm)



31-rasm



G‘ijjaklar orkestrning barcha guruhlari bilan qo‘shilganda o‘zgacha jiloli sadolanadi.
G‘ijjak I + g‘ijjak II + g‘ijjak alt
G‘ijjak I + g‘ijjak II + baslar
G‘ijjak I + g‘ijjak II + g‘ijjak alt + baslar
G‘ijjaklar guruhi + puflama asboblar
G‘ijjak I, II + chang I, II
G‘ijjaklar + rubob prima + qashqar rubob
G‘ijjak I va II unison yoki g‘ijjak alt unison zich shirali ohang beradi.
G‘ijjak alt va g‘ijjak-qobuz baslar unisoni ham yaxshi ohang hosil qiladi.

| Cholg‘uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo‘yicha | Eshitilishi bo‘yicha | |
| G‘ijjak ( I va II ) | 1-tor«Mi» ikkinchi oktava;<br>2-tor «Lya» birinchi oktava;<br>3-tor «Re» birinchi oktava;<br>4-tor «Sol» kichik oktava. | «Sol» kichik oktavadan – «Lya» 4-oktavagacha | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |

**G‘IJJAK ALT** kamonli guruhida kuy (solo) yangrayotgan vaqtda qo‘shimcha akkord yoki pedal tovushini qo‘shish samarali jo‘r ohang hosil qiladi. G‘ijjak alt past va o‘rta registrdagi garmoniyani orkestrdagi mizrobli guruhi bilan ijro qilsa, yoqimli ohang beradi. G‘ijjak alt uchun kuylar alt kalitida yoziladi.

G‘ijjak alt + g‘ijjak-qobuz bas

G‘ijjak alt + afg‘on rubob + dutorlar

G‘ijjak alt + g‘ijjak-qobuz bas + g‘ijjak-qobuz kontrabas + qashqar rubob + afg‘on rubob + dutorlar.

Ko‘p hollarda g‘ijjak-qobuz bas kontrabas bilan oktavada juftlanadi. Agar akkord **4** yoki **5** tovushdan tashkil topgan bo‘lsa, asosiy kuy g‘ijjak **I, II** da **bas** tovushlari oktava juftligida g‘ijjak-qobuz bas, g‘ijjak kontrabasda, o‘rta tovushlar albatta g‘ijjak altda saqlanishi kerak. Ko‘pincha cho‘zimli tovushlarini bir oktavadan katta intervallik akkordlar tuzilishi akkord tovushlari bilan to‘ldiriladi. Shunday variantli akkordlar bog‘lanishini nazarda tutib, qo‘sh notalar ijrosi g‘ijjak altga topshiriladi. G‘ijjak alt bilan g‘ijjak-qobuz baslar unisoni zich va shirali ohang hosil qiladi. Bunda g‘ijjak-qobuz baslarning tembri ustunlik qiladi. G‘ijjak **I**, **II**, g‘ijjak alt va baslarning unisoni ***f*** da kuchli va keskin, ***p*** da yugon va mungli eshitiladigan murakkab tembr hosil qiladi. (32-rasm)



32-rasm

**G‘IJJAK-QOBUZ BAS** kamonli sozlar guruhiga kiradi. O‘zbek xalq cholg‘u asboblarini takomillashtirish laborotoriyasida g‘ijjak-qobuz basning xalqchillik darajasini saqlab qolishga harakat qilingan. Qobuz qaraqalpoq xalqiga mansub asbob. O‘zbekistonning ayrim xududlarida ham tarqalgan. Kamonli sozlar oilasini tashkil qilish maqsadida konstruktorlarimiz (A.I.Petrosyans, S.E.Didenko) qobuz asbobining xalqchillik darajasini saqlab qolgan holda g‘ijjak-qobuz bas sozini yaratdilar. O‘zbek xalq cholg‘ular orkestri kamonli sozlar guruhi simfonik orkestrining kamonli guruhiga ko‘p jihatlari bilan o‘xshashdir. G‘ijjak-qobuz bas uchun kuylar bas va tenor (1- oktava “**do**”) kalitida yoziladi. (33-rasm)



33-rasm

sozi | diapozoni | foydalaniladigan tovush kengligi



| Cholg'uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo'yicha | Eshitilishi bo'yicha | |
| G'ijjak-qobuz bas | 1-tor «Lya» kichik oktava;<br>2-tor «Re» kichik oktava;<br>3-tor «Sol» katta oktava;<br>4-tor «Do» katta oktava. | «Do» katta oktavadan – «Re» 3-oktavagacha | Yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |

Simfonik orkestridagi violonchel cholg'usi kabi sozlanadi, chalinadi va texnik imkoniyatlari ham katta. Kamon bilan chalish usullari: detache, legato, staccato, martele, spiccato, ko'rsatkich va o'rta barmoq bilan simni chertib (pizzicato) chalish, kamon dastasining pastki qismi bilan simga urib chalish (con lengo) usullari bor.

**G'IJJAK-QOBUZ KONTRABAS** kamonli sozlar guruhiga mansub soz bo'lib, u eng pastki ovoz sohibi hisoblanadi. Kontrabas uchun kuylar bas kalitida yoziladi va yozilganidan bir oktava past eshitiladi. (34-rasm)

G'ijjak kontrabas hajmi jihatidan katta bo'lganligi sababli yerga qo'yib chalinadi. Cholg'uchi tikka turib, ijro etishi shpil, ya'ni qobuz-kontrabas tagiga o'rnatilgan qoziqni bo'yiga moslab chalinishiga tayyorlangan. G'ijjak qobuz-kontrabas, g'ijjak-qobuz bas, dutor bas sozlari birgalikda orkestrda kuchli, baquvvat ohang kasb etadi. Bu asboblar orkestr fundamentini yaratadi va asosiy guruhlardan hisoblanadi, o'zaro oktava oralig'ida juftlanib, kuchli sado beradi.



34-rasm







| Cholg‘uning nomi | Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|---|
| | | Yozilishi bo‘yicha | Eshitilishi bo‘yicha | |
| G‘ijjak-qobuz kontrabaslar | 1-tor «Sol» kichik oktava*; 2-tor «Re» kichik oktava*; 3-tor «Lya» katta oktava*; 4-tor«Mi» katta oktava*. | «Mi» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha | «Mi» kontr oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha | Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi |



## TORLI - URMA SOZLAR GURUHI HAQIDA

**QONUN** - juda qadimiy cholg‘ularga mansub. Forobiyning fikricha qonun eramizning birinchi asrlarida Samarqand aholisi o‘rtasida juda mashhur bo‘lgan. Forobiy o‘zining “Cholg‘ularhaqida” nomli kitobining “Arfa”ga taalluqli bobida arfaga yaqin cholg‘u to‘g‘risida ma’lumot beradi.Har bir tovush tebranish natijasida alohida sim orqali hosil qilinadi.“Qonun” arabcha so‘zdan olingan. Safi ad - Dinning yozishicha o‘sha davrlarda qonunning ikki xil turi mavjud bo‘lgan. Buyuk olim Farmeming Britaniya muzeyida saqlanayotgan qonunlar haqidagi risolasida bu cholg‘u olxo‘ri daraxti yog‘ochidan, uzum tanasidan yasalgani va uzunligi pastki ya’ni, yo‘g‘on tovush beradigan tomoni 81 santimetr, qarama - qarshi tomoni 40,5 santimetr ekanligi yozilgan. O‘n uchta uchtadan iborat simi bo‘lgan. Qonun ikki qo‘l barmoqlari yordamida chalingan. Bu cholg‘u asosan yaqin va o‘rta Sharq xalqlari sozi hisoblanib, Turkiya, Armaniston, Ozarbayjon, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarida rivojlangan. O‘rta Osiyo xalqlari orasida xususan Buxoroda 1917 - yilgacha keng tarqalgan. Hozirgi qonunlar trapetsiyasimon yassi yog‘och quti shaklida yasalmoqda. Qopqog‘i ham yog‘ochdan yasalib o‘ng tomonining ozgina qismi, ya’ni xarrak joylashgan joyi teri bilan qoplanadi. 24 - 25 ta uchtalik ichak torlari uch oktavadan kengroq (**do** -

**re** kichik oktavadan **fa** diyez uchinchi oktavagacha) diapazonga ega. Quloqlari yaqinida torlar ostida har bir tovushni osongina yarim ton, bir ton, ba’zilarini esa bir yarim tongachao‘zgartirish imkoniyatini beruvchi temir moslamasi bo‘ladi.

Lekin XX asr boshlaridan to 1980-yillargacha mazkur cholg‘u biroz unutilgan edi. Izlanuvchan sozandalar, xususan, Abdurahmon Xoltojiyevning say‘i harakati bilan bu musiqiy cholg‘u asbobi madaniy hayotimizga kirib keldi. Hozirgi kunda qonun turli ansambllarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Qonun xarraklari teri ustida joylashishi, torlari plastik ekanligi, uning sadolanishini mayinlashtiradi. Qonun torlari har ikkala qo‘l ko‘rsatkich barmoqlariga kiydiriladigan maxsus noxun-mediator bilan ijro qilinadi. (35-rasm)


35-rasm

Qonun diatonik tovushqatoriga ega. Qonun torlarining uchtasi ham bir xil qilib sozlanadi. Cholg‘uning o’ng tomonida joylashgan kichik xarrakchalar ana shu torlarni taranglashtirib yoki bo‘shashtirib, kerakli yarim tonliklarni hosil qilishga yordam beradi.Qonun changsimon cholg‘ulardan bo’lib, cholg‘uchi barmoqlariga noxun (mizrob) bog‘lab, qonun torlarini tirnab chaladi. Qonun tovushi chang tovushidan farqli o‘laroq, uncha baland, ya’ni kuchli tovushga ega bo‘lmasa ham, uning nafis, muloyim sadosi tinglovchini o‘ziga tortadi.

Ustoz Abdusattor Qonuniy, Xo‘jaki Ja‘fariy Qonuniy, Hofiz Boboiy Qonuniy vaboshqa cholg‘u ijrochilari o‘z davrlarida milliy cholg‘ularni asrabgina qolmay, balki ularning takomil topishida ham muhim rol o‘ynaganlar. Zahiriddin Muhammad Boburning e’tirof etishicha, Alisher Navoiy o‘z davrida ko‘plab cholg‘uchilarning iste’dodini namoyon etishga ko‘maklashgan. O‘z zamonasining mohir cholg‘uchilari va bastakorlari Navoiy yordami va homiyligida katta shuhrat qozonganlar. Qonun asosan Sharq mamlakatlari va Kavkazda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda qonun sozi yakkanavozlik sifatida va turli ansambllarda munosib o‘rnini egallagan.***(Qonun - milloddan avvalgi 4-asrda mavjud bo‘lgan. 400 yil er.avv)***

**CHANG** - juda qadimiy cholg‘udir. Bu haqda uzoq o‘tmishda yashab o‘lmas asarlami yozib qoldirgan olimlar va shoirlar merosida yetarlicha ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Abu Nasr al - Forobiy (873 - 951) “Kitob al – Kabr” (musiqa haqida katta kitob) risolasida cholg‘u asboblariga, xususan chang, rubob, nay kabi sozlarga alohida o‘rin ajratadi. Forobiy chang cholg‘usining jo‘r bo‘lish xususiyati haqida eslatib o‘tar ekan, bu sozning har xil adabiy majlislar va tantanavor marosimlarda cholg‘u ansambli tuzilmalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilganini mamnuniyat bilan qayd qiladi. Al Forobiy yaratgan asarlar uning zamondoshlari va undan keyingi davr olimlarining musiqa ilmi nazariyasi bo‘yicha ilgari surilgan fikrlari va risolalari uchun asos bo‘ldi. Ibn Sino (980 - 1037), Umar Xayyom (1040 - 1123), Ma’sur Sheroziy (1236 1310), Muhammad al Amuliy (1354 yildan so‘ng vafot etgan), Alisher Navoiy (1441 - 1501), Al - Husayniy (XV asr), Mavlono Kavkabiy hamda XVIII asr mashhur sozandasi va musiqiy nazariyotchisi Darvesh Ali piri Changiy soz va sozlaming ijrochilik san’atini o‘z risolalarida ta’rif va tavsif etadilar. Yuqorida nomi tilga olingan yirik musiqashunos olim, mashhur changchi, bastakor va hofiz Darvesh Ali piri Changiy qalamiga mansub “Risolai – musiqiy” kitobida chang sozi vaolim yashagan davrda (XVII asr) changda 26 ta sim bo‘lib, yettita parda mavjudligi diqqatga sazovordir. Changda o‘n ikki maqomnmng hammasini mukammal ijro eta bilish Darvesh Ali yashagan o‘sha davrda ham sozandaning yuqori darajadagi mahoratini namoyish etuvchi omillardan biri hisoblangan.Olim o‘z risolasida cholg‘uchilik san’atida dong taratgan Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Mavlono Zaynulobiddin - Rumiy kabi ustozlami hurmat bilan tilga oladi.

